Yaxshi kayfiyat va xizmatga tayyorlik ko‘p jihatdan oilada hosil bo‘ladi hamda harbiy xizmatchiga butun xizmat kuni davomida ijobiy quvvat beradi. Harbiy xizmatchi farzandini maktabga va maktabgacha ta‘lim tashkilotiga joylashtirish, oilasi va farzandlarining harbiy shaharchada hordiq chiqarishlari haqida qayg‘urmasligi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Harbiy xizmatchilar o‘zlarining xizmat majburiyatlarini bajarish uchun uzoq muddatli xizmat safarlarida bo‘lishadi. Harbiy xizmatchi mazkur davr mobaynida uning oilasidan ko‘ngli to‘q bo‘lishi, xizmatda muvaffaqiyatga erishish uchun zamin yaratadi.

Bugungi globallashtirish jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiy

topib borishi insonlarga qator ijobiy imkoniyat hamda qulay shart-sharoitlar yaratib berish bilan birga, inson ongiga, an‘anaviy qadriyat va urf-odatlariga, eng asosiysi, oila mustahkamligiga putur yetkazuvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur omil inson ruhiyatida taranglik, betoqatlik, an‘anaviy qadriyat va urf-odatlariga hurmatsizlik, yengil-yelpi hayot kechirishga ishtiyoq kayfiyatini vujudga keltirmoqda.

Ushbu omillar er va xotinning oilaviy munosabatlari barqarorligiga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatib, oilaviy ziddiyat va kelishmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Bunday holatlarning davomiyligi oilaning inqirozga yuz tutishigacha olib keladi.

Professor G‘.Shoumarovning ta‘kidlashicha, ajrashish muammosi hozirgi paytda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Oilalarda ajralishlarning mavjudligi bizning respublikamizda ham keng jamoatchilik diqqatini o‘ziga qaratib, bu muammoning yechimini topish uchun kerakli choralarni ko‘rishga da‘vat etmoqda<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi (hozirgi “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-yilning o‘tgan olti oyi mobaynida 18 ming 506 nafar ajrashish arafasida turgan oilalarning ajrim holatlari o‘rganilgan. Oilalarning darz ketishiga eng ko‘p sabab bo‘layotgan omillar sifatida esa quyidagilar aniqlangan: er-xotinning o‘zaro kelishmovchiligi (50 foiz), oilada qaynona va qaynota, uchinchi shaxs aralashuvi (17 foiz), befarzandlik (8 foiz), xiyonat (6 foiz), ichkilikbozlik va boshqa zararli odatlar oqibatida (6 foiz), moddiy ta‘minot masalasi (4 foiz), ichki va tashqi migratsiya (4 foiz), o‘zi va farzandlarining kasalligi tufayli (1 foiz), uy-joy masalasi (1 foiz), boshqa sabablar (3 foiz)<sup>2</sup>.

Ajrashish arafasida turgan oilalar orasida turli soha vakillari qatori harbiy xizmatchilar oilalarining mavjud bo‘lishi ham tabiiy holat bo‘lib, ushbu vaziyat ularning axloqiy-ruhiy holatiga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatishi aniq.

Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining oilalarini axloqiy-ruhiy jihatdan ta‘minlash masalalariga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

<sup>1</sup> Shoumarov G‘. va b. Oila psixologiyasi. Darslik. / G‘.Shoumarovning umumiy tahriri ostida; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim vazirligi. – Toshkent: “Sharq”, 2015. – B. 190. (296 b)

<sup>2</sup> Диаграмма: “Оила” маркази тадқиқотида оилавий ажримлар сабаблари аниқланди.//<https://kun.uz/84085358>. (18.07.2019 й. соат 17:30 ҳолати бўйича)

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilar oilalari bilan ishlashga alohida e‘tibor qaratilib, harbiy xizmatchilar oilalari bilan ishlash O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari boshqaruv organlarining axloqiy-ruhiy ta‘minot va shaxsiy tarkibning axloqiy ruhiy holatini yuqori darajada saqlab turish manfaatlarida olib boradigan ustuvor faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarning oila a‘zolari bilan ishlar davlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Harbiy xizmatchilarning o‘z burchlarini mardonavor ado etishlari avvalo oilaviy hayotlarining tinchligi, oilaviy munosabatlarining mustahkamligiga uzviy bog‘liq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, harbiy xizmatchilar oilalarini axloqiy-ruhiy jihatdan ta‘minlash va mustahkamlash ishlari samaradorligini oshirish maqsadida turmush tarzida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taklif etamiz:

1) O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining hududiy boshqarmalari mutaxassislari va yetakchi psixologlar ishtirokida harbiy xizmatchilar va ularning turmush o‘rtoqlari uchun amaliy psixologiya bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini yuzaga keltirishga qaratilgan psixologik treninglar tashkil etish;

2) Harbiy xizmatchilar oila a‘zolari bilan ishlash bo‘yicha yo‘riqchi shtat birligi bo‘lmagan harbiy qism va muassasalarda ushbu lavozimni joriy etish hamda mazkur lavozimlarga oliy ma‘lumotli psixolog, pedagog mutaxassisligiga ega, tajribali mutaxassislarni tayinlash.

Bu boradagi xorijiy tajribaga to‘xtaladigan bo‘lsak, Qozog‘iston Respublikasi harbiy qism va muassasalarda harbiy xizmatchilar oilalaridagi axloqiy-ruhiy muhitni mustahkamlash, harbiy xizmatchilar oilalarining maishiy va ma‘naviy-axloqiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida,

Qozog‘iston Respublikasi Mudofaa vazirining 2017-yil 26-yanvardagi “Qozog‘iston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilar oila a‘zolari bilan ishlashni tashkil etish bo‘yicha Qo‘llanmani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 33-sonli buyrug‘iga muvofiq harbiy xizmatchilar oila a‘zolari bilan ishlash bo‘yicha xizmatlar tashkil etilgan. Unga ko‘ra, harbiy qismdan hududiy qo‘mondonlik muassasalari, qo‘shin, Qurolli Kuchlar turlari va Mudofaa vazirligigacha harbiy xizmatchilarning oila a‘zolari bilan ishlash bo‘yicha xizmat boshliqlari, yo‘riqchilar, psixologlar, inspektorlar, xizmat boshlig‘ining yordamchilari kabi shtat birliklari joriy etilgan. Shtat birliklari nazarda tutilmagan harbiy qism (muassasa) va bo‘linmalar (batalyon, vzvod)da harbiy xizmatchilarning oila a‘zolari bilan ishlash shtatdan tashqari yo‘riqchilar zimmasiga yuklatilgan. Xizmatlarning 2018-yil yakunlari bo‘yicha ishlari tahlili ular faoliyatining samaradorligini ko‘rsatgan<sup>3</sup>;

3) Harbiy xizmatchilar oila a‘zolarida kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish, ularda Vatan himoyachisining oila a‘zosi ekanligidan faxrlanish tuyg‘ularini yanada oshirish maqsadida, harbiy qism va muassasalarda ma‘lum bir madaniy-ma‘rifiy maqsadlarni ko‘zda tutuvchi harbiy xizmatchilar oilalarining tashriflarini yo‘lga qo‘yish.

Harbiy xizmatchilarning oilalarini kasbiy muhitga moslashuviga psixologik xizmat mutaxassislari bevosita va bilvosita ko‘maklashadi. Eng asosiysi, harbiy xizmatchilarning o‘zlarining ham, oila a‘zolarining ham shaxsiy muammolarini psixologik jihatdan hal qilishga metodik jihatdan yordam beradi.

<sup>3</sup> Работа отдела и служб по организации работы с членами семей военнослужащих ВС РК/ <https://sarbaz.kz/ru/army/rabota-otdela-i-slugb-po-organizatsii-raboty-s-chlenami-semey-voennoslugashchih-vs-rk-19441749>. (22.07.2021 й. соат 11:30 ҳолати бўйича)

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shoumarov G. va b. Oila psixologiyasi. Darslik. – Toshkent: “Sharq”, 2015. – B. 190. (296 b.)
2. Диаграмма: “Оила” маркази тадқиқотида оилавий ажримлар сабаблари аниқланди.//<https://kun.uz/84085358>. (18.07.2019 й. соат 17:30 ҳолати бўйича)
3. Работа отдела и служб по организации работы с членами семей военнослужащих ВС РК/ <https://sarbaz.kz/ru/army/rabota-otdela-i-slugb-po-organizatsii-raboty-s-chlenami-semey-voennoslugashchih-vs-rk-19441749>. (22.07. 2021 й. соат 11:30 ҳолати бўйича)



**Abdullayeva Barno Sayfuddinovna,**  
Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori

## BO'LAJAK O'QITUVCHILAR O'QUV-ILMIY FAOLIYATI MOTIVATSIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixologik xususiyatlari haqida ilmiy mulohaza va takliflar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** pedagog, o'quv faoliyati, ilmiy faoliyat, individual psixologik xususiyat, temperament.

**Аннотация.** В статье содержатся научные замечания и предложения о психологических особенностях мотивации учебной и научной деятельности будущих учителей.

**Ключевые слова:** педагог, учебная деятельность, научная деятельность, индивидуально-психологические особенности, темперамент.

**Annotation.** The article contains scientific comments and suggestions about the psychological characteristics of the motivation of future teachers' educational and scientific activities.

**Keywords:** pedagogue, educational activity, scientific activity, individual psychological characteristics, temperament.

**Kirish.** Jahon oliy ta'lim tizimida ta'lim berish jarayonini ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari bilan birlashtirishga asoslangan innovatsiyalar va innovatsion faoliyatga oid bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Fan, ta'lim hamda amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish yo'lida "Tajriba asosida ta'lim olish" (Experimental learning) g'oyasi ustuvor bo'lib qolmoqda. Mazkur jarayon, o'z navbatida, "Lifelong learning" – "Umr davomida ta'lim olish" konsepsiyasiga ko'ra, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining innovatsion faoliyatga yo'nalganligini ta'minlashni talab etmoqda. Bu borada "Experiential learning" o'qitish ta'limni o'quv sinfidan tashqarida, tajriba tarzida o'tkazishni taqozo etib, ta'lim oluvchilarni motivlashtirish yo'li bilan keng jalb etishni nazarda

tutadi<sup>1</sup>. Buning uchun talabalar innovatsion faoliyatga yo'nalganligini amalga oshirishning o'ziga xos psixologik yondashuvlariga e'tibor berish, bu jarayonni takomillashtirish orqali ularni innovatsion faoliyatga yo'naltirish masalalari dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda innovatsion faoliyatga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilib, texnika va texnologiyalarga kiritilgan yangicha yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish orqali ulkan yutuqlarni ta'minlaydigan institut sifatida qarash, ya'ni innovatsion siyosatni amalga oshirish

<sup>1</sup> Action Learning – How does it work in practice? MIT Sloan Management. Retrieved 2016-03-16 Archived 2016-03-08 at the Wayback Machine.

muhim masalalardan ekanini amaliyot ko'rsatadi. Innovatsion faoliyat samaradorligida ishlab chiqarishning turli sohalarida mavjud bo'lgan yuqori natijalarga erishish nazarda tutiladi. Bu borada ta'lim va ishlab chiqarish uzviyligini o'rnatish jarayonida yangiliklarni izlab topish va kiritish, innovatsion faoliyatga psixologik tayyor turish yondashuvini shakllantirish yo'nalishlarda keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarni Vataniga sodiq, mard va fidoyi, yuksak ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan, zamonaviy fan va texnika yutuqlarini mukammal egallagan holda ilmiy tasavvurlarini shakllantirishning psixologik mexanizmlari tizimini takomillashtirish bo'yicha strategik vazifalar belgilanib, zarur asoslari yaratilmoqda. "Innovatsiya – bu kelajak degani... Buyuk kelajagimizni barpo etishni ... aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"<sup>2</sup>ligi zamonaviy rivojlanish yo'lidagi jamiyatda ilmiy-innovatsion tafakkur shakllanishining psixologik vositalarini aniqlashga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratilganligini ko'rsatmoqda.

**Asosiy qism.** O'qituvchilik kasbi hamisha o'zining mashaqqatli va shu bilan birga, sharaffi ekanligi bilan ajralib turgan. Shu boisdan ham so'nggi yillarda jamiyatda pedagoglarning mavqeyini oshirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, har tomonlama ijtimoiy kutuvlarga javob beradigan pedagoglarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalari oldiga ulkan vazifalar qo'yimoqda. Bo'lajak pedagoglarni ham kasbiy, ham ilmiy innovatsion faoliyatga tayyorlash va ularning motivatsion sohasini faollashtirish muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak pedagog talabalarining o'quv-ilmiy faoliyati xususida A.N.Leontev quyidagi fikrlarni bildiradi: "o'quv hamda innovatsion faoliyat bu faqatgina alohida insonning harakati emas, balki boshqalarning ham harakati davom etayotgan bir davrda buning ham faoliyati, ya'ni qandaydir hamkorlik faoliyati sanaladi", deb ko'rsatib o'tgan.

K.Rodjersning fikricha, agar insonga tug'ma salohiyatlarni to'liq ifodalash uchun sharoit yaratib bersak, u optimal va samarali tarzda rivojlanadi.

Bu tarzdagi konstruktiv tug'ma salohiyatning rivojlanishi insonga o'z kompetensiyalari va professionalizmini, shu bilan birga, ijtimoiy yetukligini, mas'uliyatlilikini va ijodga intilishini ta'minlaydi.

Rus tadqiqotchilari qarashlarining o'ziga xosligi shundaki, shaxsiy-kasbiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan talabaning sifatlar yig'indisi hamda ta'lim jarayonida innovatsion faoliyatga yo'naltirish va bu yo'nalishda o'z yechimini topishi lozim bo'lgan masalalarni (qaysi talab va ehtiyojlarni shakllantirish lozim, shaxsiy va kasbiy tafovutlarni ajratish va boshqalar) belgilab olishni taqozo etadi. Jumladan, innovatsiya psixologiyasini chuqur o'rgangan S.R.Yagolkovskiyning qarashicha, har qanday innovatsiya bevosita biron-bir faoliyat sohasiga taalluqli bo'ladi, shu sababli innovatsiya muallifi uning g'oyasi amaliyotda qo'llanishi samara berishini anglashi kerak. Buning uchun kasbiy yo'nalganlikning darajasi yuqori bo'lishi lozimki, ta'lim amaliyotida psixologlar bu masalaga e'tibor qaratishi talab etiladi.

L.I.Petrova o'rta kasbiy ta'lim muassasasining o'quv-innovatsion faoliyat kuzatuvini amalga oshirishning metodik jihatlarini o'rganib, faqatgina ta'lim jarayoniga jalb etgan o'qituvchilarning innovatsion faoliyati sifatida uslubiy ko'rsatmalar hamda fan doirasida yaratilgan maketlar kabilarning majmuasini ko'rsatib o'tgan.

V.P.Zinchenko talabalarni ham o'quv, ham innovatsion faoliyatga yo'naltirishda ma'naviy, ijodiy va ijtimoiy kabi tarkiblar bevosita talaba shaxsini shakllantirish uchun ham amal qilishini ko'rsatib o'tgan.

Umuman olganda, bo'lajak pedagoglarning ilmiy innovatsion faoliyati va o'quv faoliyatining motivatsion jihatlarini tahlil qilishda bir qancha konseptual asoslarga tayanish mumkin.

Motivatsiya murakkab tuzilmaviy faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar qorishmasi bo'lib, u o'zini mayllar, maqsadlar, idealar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi.

Motivatsiya odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuyidir.

V.S.Merlin motivlar tizimlarining ayrim jihatlarini ancha batafsil yoritib beradi. U motivlar tizimlarining shakllanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi: "turli motivlar bora-bora o'zaro

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ, 2018. – Б. 19-20.



bog‘liq va bir-biriga tobe bo‘lib boradi hamda oxir-oqibatda motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi”. V.S.Merlin bo‘yicha motivlar tizimlari o‘zaro bog‘liq va bir-biriga tobe bo‘lib, shaxs motivlarining bir butun yig‘indisidan iborat. Ammo V.S.Merlin garchi motivlar tizimlarining ayrim muhim jihatlarini ko‘rsatib o‘tgan bo‘lsa ham, motivlar o‘rtasidagi tizimli munosabatlarni motivlar tizimlari va faoliyat ko‘rsatish muammosini tadqiq etmagan.

P.M.Yakobson o‘qish motivatsiyasining uch xil turini ajratib ko‘rsatadi:

Birinchidan, shartli ravishda “manfiy” deb atash mumkin bo‘lgan motivatsiya. O‘qishning manfiy motivatsiyasi deganda olim o‘quvchining, agar u o‘qimasa, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muayyan noqulayliklar va qiyinchiliklarni anglashi nazarda tutadi. Bunday motivatsiya, agar uni qayta qurish amalga oshirilmasa, muvaffaqiyatli natijalarga olib kelmaydi.

Ikkinchidan, bu o‘quv faoliyatining o‘zidan tashqarida singdirilgan, biroq ijobiy tabiatga ega motivlar bilan bog‘liq motivatsiyadir. Bunda, P.M.Yakobson motivatsiyaning ikki shakllari haqida so‘z yuritadi – birinchisi keng ijtimoiy motivlar, ikkinchisi esa tor shaxsiy motivlar bilan belgilanadi.

Uchinchidan, bu o‘quv jarayonining o‘ziga singdirilgan motivatsiyadir. Bu holda bilim olish jarayoni ma‘lum bir bilimlar, malakalarni, ko‘nikmalarni o‘rganish, o‘zlashtirishga undaydi.

O‘qishga bo‘lgan motivatsiyaning bu shakllari hech qachon sof (toza, alohida) shaklda amal qilmaydi. Aslida, o‘qish motivlari har doim murakkabroq tabiatga ega bo‘ladi.

Olimlar U.Kennedi va G.Vilkott o‘zlarining “Maqtov va tanbeh stimullar sifatida” deb nomlangan maqolalarida maqtov (ma‘qullash) va tanbeh berish (koyish)ning ahamiyatini o‘qish jarayonida qo‘zg‘atuvchi (uyg‘otuvchi, turtki bo‘luvchi) motivlar sifatida maxsus tadqiq qilingan ishlarning tizimli sharhini (talqinini) berishgan. Bu mualliflarda tahsil oluvchilarning turli xil vazifalarni: arifmetik masalalarni bajarish va aqliy rivojlanganlik darajasini aniqlash vazifa qanday bajarganliklari o‘rganilgan.

Sharhda natijalar bir-biriga zid kelgani ko‘rsatiladi: ba‘zi mualliflar maqtashni pand berishdan ko‘ra kuchliroq qo‘zg‘atuvchi deb hisoblashgan, boshqalari esa buning aksini

ilgari surishgan. Masalan, sinovda ishtirok etayotgan bolalarni introvertlashtirilgan va ekstrovertlashtirilgan guruhlariga ajratishda quyidagi xulosaga kelingan: introvertlashtirilganlar maqtalganda, ekstrovertlashtirilganlar esa tanbeh berilganda yuqori darajada ijro darajasidagi amallarni bajarishgan.

Pedagogik-psixologik manbalarda o‘quv-ilmiiy faoliyat motivatsiyasining rivojlanish omillari umumlashtirish mezonini bo‘yicha besh guruh ko‘rinishida namoyan bo‘lishi mumkin.

Birinchi guruhni talabalarning o‘qish motivatsiyasini maqsadli rivojlantirish imkonini beruvchi didaktik (psixologik-didaktik) prinsiplar tashkil etadi:

- “qiyinchilik o‘lchovi”, qiyinchilikning optimal darajasi prinsipi (L.V.Zankov);
- ta’limda muammolilik prinsipi (V.Okon, A.N.Matyushkin, M.I.Maxmutov, T.V.Kudryavsev, I.Y.Lerner);
- o‘zlashtirilgan o‘quv materialini izchil umumlashtirish prinsipi (A.M.Matyushkin);
- o‘quv materialida “mavhumlikdan aniqlikka” tomon harakatlanish prinsipi (V.V.Davidov, A.K.Markova);
- shaxsning faollik prinsipi, kasbiy faoliyat mazmunini izchil modellashtirish (A.A.Verbitskiy).

Ikkinchi guruh omillarini o‘quv-ilmiiy faoliyat motivatsiyasining rivojlanishiga yo‘naltirish asosida ajratish mumkin:

- individual yondashuv;
- tipologik yondashuv;
- topologik yondashuv (V.F. Morgun).

Uchinchi guruhni ta’limda biron-bir psixologik-pedagogik nazariya yoki konsepsiyani amalga oshirish vositalarini ta’minlovchi motivlarni rivojlantiruvchi omillar tashkil etadi:

- aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish (P.Y.Galperin, N.F.Talizina va b.);
- muammoli ta’lim (A.V.Brushlinskiy, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov va b.);
- rivojlantiruvchi ta’lim (V.V.Davidov, D.B.Elkonin);
- dasturlashtirilgan ta’lim, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishni amalga oshiruvchi faoliyatli yondashuv va pedagogning “oq quti” prinsipiga nisbatan boshqaruvchilik ta’siri (N.F.Talizina);
- shaxsiy-faoliyatli yondashuv (I.A.Zimnyaya);
- belgili-matnli ta’lim (A.A.Verbitskiy).

To'rtinchi guruhni an'anaviy ta'limda ham, yuqorida sanab o'tilgan ta'limga nisbatan yondashuvlarda ham o'z o'rniga ega bo'ladigan, o'quv-ilmiy faoliyatini tashkillashtirishda psixologik-pedagogik sharoitlarni o'z ichiga oluvchi omillar tashkil etadi:

– o'qituvchi shaxsining psixologik xususiyatlari (L.S.Vigotskiy, F.N.Gonobolin, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, Dj.Bruner va b.);

– shaxsiy, subyekt-subyekt xususiyatlari, hamkorlarning o'zaro ta'siri va pedagogning ta'lim oluvchilar bilan munosabati, hamkorlikdagi sermahsul faoliyatni tashkillashtirish (V.V.Davidov, I.A.Zimnyaya, V.Y.Lyaudis, A.K.Markova, G.I.Shukina);

– o'quv materialini namoyish qilish shakllari va talabalarning ish turlarini tashkillashtirish usullari (L.V.Zankov, P.I.Zinchenko, A.K.Markova, V.Grabal, T.A.Platonova, M.I.Volovikova);

– talabalarning hamkorlikdagi faoliyat shakllarining turli-tumanligini ta'minlovchi, o'quv materialini mazmunining o'ziga xosligi (V.V.Davidov, A.K.Markova, G.A.Matis, P.Golu, T.A.Kolsova va b.q.);

– har qanday ta'lim metodining asosi bo'lgan metodikalarning qo'llanishi (E.Stouns);

– o'quv-ilmiy faoliyatini tashkillashtirishda talabalarning ijobiy motivatsiyasini hisobga olish (M.I.Matyuxina);

– o'quv predmetining tuzilishi, o'quv materialining tuzilish xususiyatlari, o'zlashtirilgan bilimlarning mazmuni, topshiriqlarda yo'naltirish tiplari va harakatlarning yo'naltiruvchi asosi bilan tanishish usuli, o'quv topshiriqlarini taqdim qilish metodlari (V.F.Morgun, A.F.Karpova);

– ta'lim sharoitining maqsadli o'zgartirilishi, nazariy bilimlarni o'zlashtirishga urg'u berish (V.V.Davidov, V.V.Repkin, A.K.Dusaviskiy);

– umumilmiy va ixtisoslashgan oliy ta'lim fanlari o'rtasida fanlararo munosabatning o'rnatilishi (T.A.Kolsova);

– pedagogik baho (B.G.Ananayev);

– atrof-dagilarning bahosi (S.L.Rubinshteyn);

– o'qishni boshqarish tiplari (T.A.Matis, N.F.Talizina);

– motivlarning iyerarxik maqomini hisobga olish va ta'limni tashkillashtirishda ularning ta'sirini belgilash (G.I.Shukina);

– o'quv materialining talaba ehtiyojlari bilan mutanosibli, uning yetarlicha murakkabligi va tushunarligi, dastur materialini o'zlashtirishni tashkil etishning uch asosiy bosqichini qo'llash: motivatsion, bilish, refleksiv baholovchi (L.M.Fridman);

– bo'lajak kasb istiqbollari (A.K.Markova);

– semiotik, o'yinli, ijtimoiy ta'lim modellarini izchil qo'llash vositasida beriladigan kasbiy faoliyat konteksti (A.A.Verbitskiy).

Beshinchi guruh talabalarning subyektiv xususiyatlari (psixik jarayonlar, holat, shaxs xususiyati) va ularni faoliyatda namoyon bo'lish xususiyatlarini birlashtiradi:

– o'quv-ilmiy faoliyatining maqsad, jarayon va natijalari, ularning xususiyatlarining talabalar tomonidan anglanishi (Y.N.Kulyutkin, G.S.Suxobskaya);

– faoliyat predmetiga nisbatan subyektning munosabati; unda paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar; atrof-dagilarning faoliyat subyektiga qiziqishi; boshqalar bilan faoliyat almashinuvi; subyekt tomonidan o'z rejalarini boshqalar faoliyatiga kiritish (G.I.Shukina);

– o'quv-ilmiy faoliyatining psixologik strukturasi subyekt tomonidan o'zlashtirish darajasi (A.K.Markova, T.I.Lyax, G.S.Abramova);

– talabaning nazariy nuqtayi nazari shakllangani, o'z motivatsion doirasini faol tahlil qilish usullari, harakat usullariga yo'nalganligi va ularni yangi sharoitlarda mustaqil qo'llashi (A.K.Markova, L.K.Zolotix, T.I.Lyax, M.V.Matyuxina);

– talabalar o'zlari o'zlashtirayotgan o'quv predmetining ahamiyatini anglashi (Y.N.Kulyutkin);

– ta'limda shaxsning faolligi va mustaqilligi, o'z mavqeyi va o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tashkillashtirish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini motivlashtirish orqali egallashi (Y.N.Kulyutkin, G.I.Shukina);

– o'z-o'zini yuqori baholash, o'z kuchiga ishonch (S.L.Rubinshteyn, R.Berns);

– ijobiy hislar, o'qishdagi muvaffaqiyat, talabaning oldingi tajribasi (E.Stouns);

– iroda (N.X.Baramidze), motivatsiyaning erkin shakli (V.A.Ivannikov);

– o'quv-ilmiy faoliyatining obyektiv va subyektiv ahamiyati borasida talaba bahosi, o'z

intilishlaridan kelib chiqqan holda muvaffaqiyatning ehtimolligi; muayyan o'quv vaziyatida o'z imkoniyatlarini tahlil qilish va shu asosda o'qish jarayoniga o'z munosabatini belgilash (A.K.Markova);

– o'quv-ilmiy faoliyati muvaffaqiyatligining ko'tarilishi (I.P.Imenitova, M.V.Matyuxina);

– talabaning o'z bilish imkoniyatlarini tahlil qilishga qodirligi; bilishga oid qiziqishlarining paydo bo'lishida jinsiy-yosh xususiyatlari (A.I.Kondratyuk).

**Xulosa.** Bo'lajak o'qituvchilardagi o'quv-ilmiy faoliyat motivatsiyasining ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

– motiv shaxsni faoliyatga undovchi kuch bo'lib, uning psixodinamik aspektlari, shaxs strukturasi va funksional holati, semantik maydondagi differensial reprezentatsiyasi, shaxs ehtiyojlari iyeraxiyasi bilan determinatsiyasi konseptual qarashlarda tahlil qilib berilgan;

– o'quv-ilmiy faoliyat motivining qo'zg'atuvchilari, ma'lumotlarning "yangilik effektiga" nisbatan motivatorlarning paydo bo'lish mexanizmlari, situativ xarakterdagi motivlar

kurashining irodaviy aktda ifodalanishi, shaxs psixofiziologiyasi va faoliyat motivlari orasidagi bog'liqliklarning psixologik xususiyatlari xorij va o'zbek olimlarining qarashlarida yoritib berilgan;

– O'zbekiston psixologlarining tadqiqotlarida, asosan, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatlarining psixologik jihatlari, o'quv faoliyati jarayonidagi nizo, motivatsiya, ijod va shaxs muammolari, o'quv faoliyatida burch bilan bog'liq motivlarning rivojlanishi, shaxs tomonidan motivatsion o'z-o'zini boshqarish, o'smir o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish va rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash, o'smir yoshdagi o'quvchilarning o'qish motivlari muammolari o'rganilgan;

– talabalar o'quv-ilmiy faoliyatini tashkil qilishda motivatsion strukturaning kognitiv, emotsional, ijtimoiy komponentlarini o'rni va ta'sir doirasi katta va talabalarda o'quv-ilmiy faoliyat motivining dinamik tarzda namoyon bo'lishida kasbiy tasavvurlar, kasbiy yo'nalganlik, tanlangan kasbdan qoniqqanlik, kasbiy etiyoljar iyerarxiyasini reflektiv darajada tahlil qilish omillari muhim ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – B. 19-20.
2. Вербицкий А.А., Бакшаева Н.А. Проблема трансформации мотивов в контекстном обучении. // Вопросы психологии. – № 3, 1997. – С. 45-50.
3. Занков Л.В. Избранные педагогические труды. – Москва: Педагогика, 1990. – С. 98.
4. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. – Москва: Педагогика, 1981. – С. 186.
5. Тихомиров О.К. Понятия «цель» и «целеобразование» в психологии. // Хрестоматия по педагогической психологии. / Сост. А.И.Красило и А.П.Новгородцева. – Москва: Изд. МГУ, 1995. – С. 66-82.
6. Щукина Г.И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе. / Учеб. пособие. – Москва: Просвещение, 1979.
7. [Action Learning – How does it work in practice? MIT Sloan Management](#). Retrieved 2016-03-16 [Archived](#) 2016-03-08 at the [Wayback Machine](#).



**Abdusamatov Xasanboy,**  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

## MIGRATSIYA VA QADRIYATLAR TO‘QNASHUVI IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy migratsiya jarayonida qadriyatlar to‘qnashuvining psixologik muammolari keltirilgan. Yangi ijtimoiy muhitga moslashish, integratsiyalash va uning usullari haqida yoritilgan. Xorijiy olimlar tomonidan qadriyatlar va migratsiya jarayonini tadqiq etilganligi yozilgan. Migratsiya jarayonida qadriyatlarni saqlab qolish bo‘yicha psixologik tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** migratsiya, qadriyatlar, assimilyasiya, intergatsiya, psixologiya, moslashish, psixologik tavsiyalar.

**Аннотация.** В данной статье представлены психологические проблемы конфликта ценностей в процессе современной миграции. Освещаются адаптация к новой социальной среде, интеграция и ее методы. Пишут, что зарубежные ученые исследовали ценности и миграционный процесс. Даны психологические рекомендации по сохранению ценностей в процессе миграции.

**Ключевые слова:** миграция, ценности, ассимиляция, интеграция, психология, адаптация, психологические рекомендации.

**Abstract.** This article presents the psychological problems of the conflict of values in the process of modern migration. Highlights adaptation to a new social environment, integration and its methods. They write that foreign scientists have studied the values and the migration process. Psychological recommendations for the preservation of values in the process of migration are given.

**Keywords:** migration, values, assimilation, integration, psychology, adaptation, psychological recommendations.

**Kirish.** Yevropa mamlakatlarida istiqomat qilayotgan migrantlarga mezbon mamlakatlarning yashash tarzi va madaniyati ko‘proq ta’sir qilmoqda. Migrantlarning yashab turgan muhiti ularning qadriyatlar tizimining o‘zgarishiga zamin bo‘ladi. Rossiya Milliy tadqiqotlar universiteti xodimlari tomonidan Yevropadagi migrantlarning moslashuvida tug‘ilgan joy va yashayotgan mamlakati roli bo‘yicha ommaviy ongini o‘rgangan<sup>1</sup>.

Migrantlar – turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhitda o‘z va begona qadriyatlar to‘qnashuvida

o‘zining individual-psixologik xususiyatlarini ko‘rsatadigan inson jamoasi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarning tahlillari shaxsning asosiy hayot qadriyatlarini uning umrining oxirigacha o‘zgarishsiz qoladi, degan hukmron g‘oyani ilgari suradi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, muhojirlarning qadriyatlarini, yashash tarzlari yangi ijtimoiy-madaniy muhitga ko‘chib o‘tgandan so‘ng o‘zgarishi mumkin.

**Asosiy qism.** Migrantlar qadriyatlarini saqlab qolish, biroz o‘zgartirish yoki umuman yangi ijtimoiy omillarni qabul qilish bilan bog‘liq

<sup>1</sup> <https://iq.hse.ru/news>



bo'lgan jarayon ularning integrallashuvi davriga hal bo'ladi. Integrallashuv qiyin va muhim jarayondir. Ontogenez bosqichlarining dastlabki yillarida, ya'ni bolalik, o'smir va o'spirinlik davrlarida boshqa hududga ko'chib o'tish, yashash holatlari kuzatilsa, intergallashuv ularning yashab turgan muhiti ta'siri doirasida bo'ladi va yangi ijtimoiy-madaniy muhitning tartib qoidasini o'zlashtiradi.

Ilmiy adabiyotlarda integratsiyaning bir nechta usullari aniqlangani ko'rsatiladi:

**birinchi usul** - etnik aralash yo'li bo'lib, turli etnik jamoalarning birlashishi yoki ko'chirilishi natijasida yangi urf-odatlar va o'zida mavjud bo'lgan etnik xususiyatlarning qo'shilishi orqali yangi etnik xususiyat va etnik guruh paydo bo'ladi;

**ikkinchi usul** – assimilyatsiya, bir etnik guruh xususiyatlarining boshqasiga singishi va o'zining milliy-madaniy yoki lingvistik xususiyatlari butunlay yo'qoladi;

**uchinchi usul** – etnik o'ziga xos xususiyatlar saqlab qolinadi, yangi ijtimoiy-madaniy muhit va urf-odatlardan kamroq foydalaniladi.

X.Verner muhojirlarning integratsiyalashuviga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi:

– **birinchidan**, yangi ijtimoiy muhitda uzoq muddat qolish va avlodlar almashuvining yuzaga kelishi bilan bog'liq;

– **ikkinchidan**, migrantlar soni va yashash joyi. Hayotiy an'analarga ko'ra, ular belgilangan vaqt va joylarda uchrashuvlar tashkil qiladi. Bu esa migrantlarning ongiga salbiy va ijobiy ta'sir qiladi. Ular yuqoridagi tadbirlarda hamyurtlarining yashash tarzini o'rganadi, tahlil qiladi va o'zlashtiradi;

– **uchinchidan**, migrantlarning ta'lim darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy holati. Minglab migrantlar o'zining milliy xususiyatiga qarab emas, jamiyatning talab qoidalariga ko'ra ish tutasi;

– **to'rtinchidan**, etnik jamoaning diniy asoslari, migrantlar e'tiqod qilayotgan dindan boshqa dinga e'tiqod qiluvchi jamiyatga kelib qolsa, integratsiya jarayoni juda sekin kechadi;

– **beshinchidan**, aksariyat mamlakatlar aholisi migrantlarga nisbatan yomon fikrda ekanligi, ba'zi hollarda dushman sifatida qarashidir<sup>2</sup>.

Migrantlarning mezbon mamlakatlar jamiyatiga integratsiyalashuvi har doim ham oson kechmagan.

<sup>2</sup> <https://www.vestnik.mgimo.ru/jour/article/viewFile/2499/2038>

Chunki integratsiyalashuv jarayonining quyidagi murakkab tarkibiy qismlari mavjud: ekologik, fuqarolik, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va madaniy. Arab mamlakatlari, Lotin amerikasi va Xitoy davlatlarida yashayotgan migrantlarning integrallashuvi qiyin kechadi. Migrantlarga nisbatan “integratsiyasi” atamasi ilk bor fanga rus olimi E.Nitoburg tomonidan kiritilgan bo'lib, u yahudiylarni AQSHning ijtimoiy-madaniy muhitiga integratsiyalashuvi misolida ko'rib chiqqan.

Yuqoridagi omillardan bilish mumkinki, integratsiya jarayoni turli bosqich va usullar orqali amalga oshadi. Qadriyatlarni saqlab qolish, uni keyingi avlodga yetkazish har bir insonni oliy maqsadi bo'lishi kerak. Qadriyatlar bizga meros sifatida qoldirilgan bebaho boylik hisoblanadi. Kim qaysi jamiyatda tug'ilgan bo'lsa, o'sha hududning qadriyatlariga ergashishga moyillik yuqori bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, qadriyatlar to'qnashuvi yuz berganda, migrantlarning shaxsiy va o'z vatanining qadriyatlari ular ko'chib o'tgan yoki ishlayotgan mamlakat qadriyatlaridan ustun ekanligi aniqlangan. Respondentlardan Yevropa Ittifoqi fuqarolarining 35%, AQSHning 68% aholisi migrantlar yangi g'oyalar va an'analar joriy etish orqali milliy madaniyatni yaxshilash mumkinligiga ishonishgan. Yevropa mamlakatlaridan, asosan, Germaniya (71%) va Daniya (72%)lik respondentlar migrantlar borasida optimist ekanligi aniqlangan. Ammo so'rovnom natijalariga ko'ra, salbiy tendensiyalar ham borligi qayd etilgan. Yevropa Ittifoqi fuqarolarining 35% va AQSHning 40 % aholisi migrantlarning oqimi ortishi terrorchilik hujumlarini oshiradi, deb hisoblaydi<sup>3</sup>.

Qadriyatlar tizimida migratsiya jarayoniga mos keladigan psixologik nazariyalardan biri D.A.Leontev tomonidan taklif qilingan nazariyadir. Olim tomonidan qadriyatlar quyidagi uch tizimga bo'lingan:

– ijtimoiy ideallar. Bu qadriyatlarning asl shakli hisoblanadi, u oiladan tortib to insoniyat tomonidan ishlab chiqiladi. Ijtimoiy qadriyat insoniyatning mingyillik tajribasi mahsuloti hisoblanadi;

– mujassamlashgan qadriyatlar. Ijtimoiy qadriyatlar bizga mavhum tarzda kelmaydi, u ma'lum shaxslar tomonidan asarlar orqali yetib keladi;

<sup>3</sup> <https://www.vestnik.mgimo.ru/jour/article/viewFile>

– shaxsiy qadriyatlar. Odamlarning faoliyati orqali sodir bo‘ladigan, ularni maqsad sari yetaklaydi. Ijtimoiy qadriyatlarni tan olish orqali shaxsiy qadriyatlar shakllanadi.

Migratsiya jarayoni yuqoridagi ikki qadriyatlarni ijtimoiy shaxsiy qadriyatlar to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Misol uchun, g‘arb jamiyatidan sharq jamiyatiga yoki aksi bo‘lgan hodisalar. Ushbu hodisalarda qadriyatlarni idrok qilishning ikki tomoni mavjud. Agar migrant yangi ijtimoiy muhitning qadriyatlarini tan olmasa, nizo va to‘qnashuvlar yuzaga kelishi ehtimoli bo‘ladi. Ushbu holatda ikkita psixologik jarayon shaxsning idrok darajasi va jamiyatni darajasi o‘rtasidagi integratsiyalashuvi muhim bo‘ladi.

G‘arb tadqiqot markazlari tomonidan ushbu masala o‘rganilmoqda. Turli mamlakatlarda nodavlat tashkilotlar migrantlar haqida statistik ma’lumotlarni to‘playdi xolos. AQSHda migrantlarning idrok etishini tahlil qilib boradigan jamg‘armalar faoliyat olib boradi. Ushbu tadqiqot markazlarida migrantlar haqida jamoatchilik fikri o‘lchanib boriladi. Bunday tadqiqotlar demokratik mamlakatlarda ko‘pchilik ovozi bilan siyosiy, ma’naviy qadriyatlarni hamda migrantlarga qaratilgan siyosatni pragmatik mulohazalar bilan bog‘lash imkonini beradi. Migrantlar bilan munosabatdagi noaniqlik, ularning faoliyatiga qaratilgan me’yoriy hujjatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda empirik tayanch vazifasini bajaradi.

Mezbon mamlakat aholisining migrantlarga nisbatan ustanovkasi ularning o‘sha jamiyatga integratsiyalash jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Migrantlarning ishsizligi turli jinoyatlarning oshishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Migratsiya qadriyati va qonunchilik haqida gap yutirilganda quyidagi uchta asosiy model mavjud:

– Birinchi model segregatsiya strategiyasi. Migrantlarga vaqtinchalik hodisa sifatida qaralib, ularni yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashtirish bo‘yicha keskin choralar ko‘rilmaydi.

– Ikkinchi model assimilyatsiya strategiyasi. Immigrantlarga davlat jiddiy hodisa sifatida qaraladi, hukumat imkon qadar ularni jamiyatga tez qo‘shilib ketishiga harakat qiladi.

– Uchinchi model multikulturalizm modeli. Ushbu modelga ko‘ra, davlat tomonidan etnik va diniy guruhlariga siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etishi uchun teng huquq va imkoniyatlar beriladi.

Ushbu modellar hozircha hech bir mamlakatda samarali yo‘lga qo‘yilmagan. Chunki har bir davlat o‘zining tarixiy tajribasidan kelib chiqib, migrantlar to‘g‘risidagi qonunlarni va muayyan modellarni yaratadi. Ayni vaqtdagi jamiyat xalqaro migratsiya jarayonidagi muammolarning dastlabki bosqichlarini hal qilish darajasida, xolos. Hozirgi vaqtda qadriyatlar “madaniyatlararo” va “madaniyatlar ustidan” tizimida shakllanmoqda. Juda ko‘p mamlakatlar migrantlar masalasida be’etiborlik asosida siyosat olib boradi, natijada migrantlarning yangi ijtimoiy muhitga xulq-atvori chizig‘i o‘z-o‘zidan shakllanadi. Moslashishning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishiga tayanish migrantlar bilan olib boriladigan siyosatning samarali yakunlanishiga olib kelmaydi.

**Xulosa.** Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish, ular bilan muntazam aloqalarni o‘rnatish yo‘lga qo‘yilmoqda. Xorij mamlakatlariga borib o‘qish va yashash imkoniyatlari oshdi. Sharqona qadriyat, o‘zbekona oilaviy munosabatlarga nisbatan o‘zgarish paydo bo‘lmoqda. Bizning hudud, bizning mamlakat o‘z qadriyatlarini, sharqona va diniy meroslarini asrab qolgan kam sonli xalqlar qatoriga kiradi. Bunday bebaho meroslarni o‘rganish va har qanday ilmiy ishning mazmun mohiyati sifatida qarash lozim.

Milliy va diniy qadriyatlarimizga mutlaqo mos kelmaydigan zamonaviy oila an’analari vujudga kelmoqda. To‘ylarimizdagi ortiqcha sarf-xarajatlar, insonni qarz botqog‘iga solib qo‘yadigan chiqimlar, to‘ydan keyin davom etadigan yuzga yaqin urf-odatlar oilaning darz ketishiga asosiy sabablardan biri bo‘lmoqda. Ushbu omillar ijtimoiy tarmoqlar, migratsiya natijasida yangi muhitda ko‘rgan voqea-hodisalarni va o‘sha voqea-hodisalar jamoatchilik tomonidan yuksak darajada olqishlanishlarini irdok etishi hamda o‘z hayotida aks ettirishga urinish orqali qadriyatlarga nisbatan tosh otilmoqda.

Bizning o‘z tariximiz, madaniyatlarimiz, qadriyatlarimizdan boshqa hech narsa yorug‘likka olib chiqmasligini tushunsak, baxt – uzoqda emas ichimizda ekanligiga amin bo‘lamiz. Baxtli bo‘lish uchun uzoqqa ketishning keragi yo‘q, o‘zimizga kelsak bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Нитобург Э. США: «Исчезающий американский еврей» — интеграция или ассимиляция? // Этнографическое обозрение. 1995. – №5.
2. Дьячков М.В. Об ассимиляции и интеграции в политических социумах// Социальные исследования. 1995. – №7. – С. 89.
3. Стокер П. Работа иностранцев: Обзор международной миграционной рабочей силы. – Москва: Академия, 1995. – С. 54–67.
4. Саид Чамлижа / Иймон ва хузун. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022.-128 б
5. Цапенко И.П. Социально-политические последствия международной миграции населения// МЭ и МО, 1999. – № 3. – С. 52–63.
6. Ценности — предметы и явления культуры, морали, нравственности и т.п.; явление, предмет, имеющий то или иное значение, важный, существенный в каком-то отношении. (Большой толковый словарь русского языка под ред. А.С. Кузнецова, СПб Норинт, 1998, 1036 с.)
7. Леонтьев Д.А. Ценностные представления в индивидуальном и групповом сознании., Психологическое обозрение №1, 1998.; Леонтьев Д.А. Методика изучения ценностных ориентаций. Психологическое обозрение. 2000. – №12.



**Atabayeva Nargis Batirovna,**  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti*  
*“Psixologiya” kafedrasi dotsenti,*  
*psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

## SHAXSDA ALTRUIZM NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK DETERMINATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada shaxsda altruizm xususiyatining rivojlanish omillari haqida ilmiy mulohaza va takliflar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada altruizmning turlari keltirilgan.

**Tayanch so‘:** altruizm, evolyutsiya, empatiya, jamiyat.

**Аннотация.** В статье представлены научные замечания и предложения о факторах развития альтруизма у человека. Кроме этого, в статье перечислены виды альтруизма.

**Ключевые слова:** альтруизм, эволюция, эмпатия, общество.

**Abstract.** The article presents scientific comments and proposals on the factors of development of altruism in human. In addition, the article lists the types of altruism.

**Keywords:** altruism, evolution, empathy, society.

**Kirish.** Barcha mamlakatlar qatori yoshlarning axloqiy rivojlanishi, ularni insonparvarlik g‘oyalari asosida milliy ruhda tarbiyalash masalasiga davlatimizda ham katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizni rivojlantirish va uning mustaqilligini mustahkamlashning strategik vazifalarida ma‘nan yetuk, barkamol avlodni, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko‘rsata oladigan ko‘ngilli yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda “biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”<sup>1</sup> va bu esa o‘zida kelayotgan yosh avlodni

sharqona tarbiya asosiga qurilgan umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdek katta mas‘uliyatni jamiyat oldiga yuklamoqda.

Sharqona tarbiya bolaning milliy o‘zligini anglashi ajdodlar qoldirgan moddiy-ma‘naviy merosdan, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro‘-e‘tiboridan faxrlanish hissi asosida namoyon bo‘ladi. Qolaversa, millatning yutuqlari, obro‘-e‘tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq bo‘lmaslik, o‘z eli va millatining jonkuyari bo‘lish, o‘z xalqining moddiy-ma‘naviy merosini asrab-avaylash, xalq odatlari, an‘analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish, mehruhabbatini o‘z amaliy faoliyatida namoyon etish – psixologiyada har bir shaxsning altruistik xulq-atvori motivlarini izohlab beruvchi turli konseptual yondashuvlar mavjud. Altruizm tushunchasiga

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 48.



olimlar turlicha izohlar berishgan. Jumladan, Dj.Seglouning<sup>2</sup> ta'kidlashicha, altruizm – bu subyektning ixtiyoriy ravishda o'zgalarga yordam berishga qaratilgan erkin harakatidir. V.V.Solovyov esa altruizm deganda, “boshqa insonlarga nisbatan axloqiy birdamlik”ni tushunishni taklif etadi. N.V.Grishinaning ta'kidlashicha, “altruizm – bu shaxsning o'z manfaatlariga asoslangan boshqa mustaqil motivlardan farqli ravishda uning asosida o'zgalarga beg'araz g'amxo'rlik qilish va sevis, guruh uchun o'zini fido qilish, mas'uliyatni his etish ehtiyoji”<sup>3</sup>.

Altruizm motivlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar barcha fan sohalari doirasida uch metodologik yo'nalishda olib borilgan. Bular:

a) komil inson xususiyatlari yo'nalishidagi tadqiqotlar (Sharq allomalari, faylasuflarning g'oyalariga asoslanadi);

b) axloqiy xulq mezoni sifatida o'rganuvchi yo'nalish (Dj.Rayt qarashlariga asoslaniladi);

v) shaxs taraqqiyotining eng oliy namunasi sifatida tadqiq etuvchi yo'nalish (L.Kolberg va T.Laykon tadqiqotlariga asoslanadi)<sup>4</sup>.

Zero, mazkur yo'nalishlarning barchasida altruizm shaxs akmeologik rivojlanishining yuqori cho'qqisi sifatida ko'rib chiqilgan.

Shaxsda altruizm motivlarining shakllanishiga qaratilgan tadqiqotlarning barchasida altruizm shaxs xulq-atvorini to'liqligicha aks ettirishga, u anglangan qadriyatlar tizimiga aylanishi va shaxsning hayoti mazmuniga singib ketishi mumkinligi asoslab berilgan. Altruizm kishilarning kundalik muloqot va faoliyatida ijtimoiy-psixologik voqelik sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Psixologik tadqiqotlari asosida altruizmga motivatsiyasini tadqiq etgan Mark Snayder, Allen Omoto va Djil Klerilar uning 4 ta umumiy qo'zg'atuvchi omilini aniqlaganlar:

**Axloqiy omillar**, ya'ni umuminsoniy, milliy qadriyatlarga va ijtimoiy me'yorlarga muvofiq harakatlanish istagi bilan bog'liq. Shaxsdagi altruizmning ontogenezda paydo bo'lishi va ifodalanishi masalasini L.Kolbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi orqali tahlil etish mumkin. Bolada “yaxshi” va “yomon” orasidagi farqni

<sup>2</sup> Майерс Д. Социальная психология. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 639 с.

<sup>3</sup> Майерс Д. Социальная психология. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 639 с.

<sup>4</sup> Соловьёв В.В. Оправдание добра // В.В.Соловьёв Соч 2 тт Т.1. – Москва: Мысль, 1988. – С. 152-169

anglash bilan bog'liq ravishda axloqiy tushunchalar shakllana boshlaydi. Bolalar psixologiyasidan ma'lumki, tarbiyada jazolash va rag'batlantirish bolaning axloqiy mushohadalariga o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zgalarga yordam beradigan bola o'zgalarning his-kechinmalarini tushuna oladigan, o'zini boshqalar o'rniga qo'yib ko'ra oladigan bo'ladi. Masalan, o'zining sevimli o'yinchog'ini do'stiga o'ynashi uchun berib turgan bola do'stining aynan shu o'yinchoqni o'ynagisi kelayotgani bilan bog'liq kechinmalarni his qila oladi.

Bolaning arzimagan ijtimoiy faolligi va mehribonchiligini rag'batlantirish ularning altruizmga moyilligini oshiradi. Ayniqsa, altruizmning ichki motivatsiyasi bo'lib xizmat qiladigan dispozitsion rag'batlantirishning o'rni alohida. Masalan, ota yoki ona bolani rag'batlantirish maqsadida “menga nonushta tayyorlashga yordam berganing uchun rahmat”, “senga ishonish mumkinligini bilaman, chunki sen o'z vaqtida yordamga kelasan” kabi jumladan foydalansa, bolada ham altruizmga moyillik shakllanadi va shu bilan bir qatorda, uning “Men siymosi” va o'z-o'ziga beradigan bahosining ortishiga sabab bo'ladi. Aynan mana shunday dispozitsion rag'batlantirish orqali bolada “jamiyatga keraklik, jamiyat uchun foydalilik hissi” shakllanib, “Men siymosining” ijtimoiy ma'qullangan jihatlari rivojlanib boradi va bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Bola tarbiyasida dispozitsion rag'batlantirish orqali intensional tajriba shakllanib, endi altruistik xulq uning qadriyatlari, dunyoqarashiga singib ketadi. O'zbek xalqi tarbiyada doim shu narsaga e'tibor qaratgan. Mana shundan sharqona tarbiyaning namunasini Sardoba suv ombori toshqini bilan bog'liq talafot yuz berganda har bir o'zbek yigit, qizlarining sardobaliklarga yordamga oshiqanligida ko'rishimiz mumkin. Bunda qanchadan qancha xonadonlar uy-joysiz qolgan sardobaliklarni o'z xonadonlariga qabul qilib oldilar, kiyim-kechak, oziq-ovqat va eng asosiysi, o'z mehr-muhabbatlari bilan dalda bo'ldilar. Misol uchun, birgina Gulistonda istiqomat qiluvchi oila vakillari 13 nafar sardobalikni o'z xonadaniga olib, o'zbekona mehr-muhabbatning, altruizmning namunasini ko'rsatib berdi.

**Kognitiv omillar** – kishilarga yordam berish orqali ularning dunyoqarashi, bilimlarini o'rganish hamda shaxsiy malaka va tajribani

orttirish bilan bog'liq omillar. Altruistik xulq-atvorning shakllanishida kognitiv omillarning o'rnini tushuntirishda Rauellom Xezmanning "Kognitiv ssenariy modeli" dan foydalanishimiz mumkin. Rauellom Xezmanning "Kognitiv ssenariy modeli" ga muvofiq, bola qachonki altruistik xulq-atvor haqida tushunchaga ega bo'lsagina, o'zgalarga yordam beradi. J. Piajening fikricha, bolalarning o'zgalarga beg'araz yordam bermasligining sababi ular qanday qilib yordam berishni bilmasliklaridadir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning xulq-atvori xarakter xususiyatlarining shakllanishida taqlidchanlik muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan tabiiy eksperiment o'tkazilganda bolalar o'z tengdoshlariga taqlid qilganlar. Masalan, boshqa tengdoshlarining bemorlarga qanday g'amxo'rlik qilayotganini yoki onasiga stol ustini yig'ishtirishga yordam berayotganini ko'rgan bolalarda altruistik xulq-atvorni amalga oshirishga moyillik yuqori bo'ladi. Ushbu kognitiv ssenariyda ota-ona va do'stlar asosiy model vazifasini bajaradilar. Masalan, o'zgalarga haqida qayg'urishni biladigan, ijtimoiy mas'uliyati yuqori bo'lgan onaning farzandida empatiya hissi yuqori darajada shakllanadi. Agar ona boshqalarga yordam berishga tashna bo'lsa, uning zurriyotida hamkorlik qilishga, o'zgalarga yordam berishga intilish hissi yuqori bo'ladi. Bizga ma'lumki, yuqori darajadagi empatiya hissi altruistik xulqning ichki motivatsiyasi bo'lib xizmat qiladi.

A. Banduraning "ijtimoiy o'rganish" nazariyasiga muvofiq esa bolani kundalik ish vazifalariga o'rgatish orqali uning shaxsiy malaka va tajribasini orttirish mumkin degan fikr ilgari suriladi. Ota-onalar o'z farzandlarini kundalik uy yumushlariga yordam berishga o'rgatish orqali ularda ijtimoiy ma'qullangan xulq-atvorni shakllantirishi mumkin. Oilaviy hayotda o'z yaqinlariga yordam berish ko'nikmasi shu tarzda shakllantiriladi va bunday oilada voyaga yetgan bolalarda altruizmga undovchi motivatsiya barqaror bo'ladi.

Xalqimizda altruizmning kognitiv asoslari shakllanishiga ta'sir etuvchi turli urf-odatlar, an'analar mavjud. Bunga yorqin misol sifatida milliy bayramlarimizdan biri Navro'z, hayit ayyomlarini olsak, bayram arafalarida tashkil etiladigan umumxalq hasharlari, yaqin qarindoshlar, keksa nuroniylar yoki bemorlarning holidan xabar olish kabi holatlar bolada atrofdagilarga yordam berish usullari haqidagi tushunchalarni shakllantiradi. Ota-

onasi oilaning nuroniy vakillarini qadrlayotganini, ularga g'amxo'rlik qilib, mehr berayotganini ko'rgan bola "Qush uyasida ko'rganini qiladi" tamoyiliga asoslanib o'zida altruistik xulq modelini rivojlantirib boradi.

**Ijtimoiy omillar** jamiyat a'zosiga aylanish va guruhviy qo'llab-quvvatlashni his etish istagi bilan bog'liq omillardir. Shaxs va jamiyat hayotida ijtimoiy ta'sirlarning roli beqiyosdir. Aynan ijtimoiy ta'sirlar, ya'ni ijtimoiy norma, sanksiya, ijtimoiy mas'uliyat hissi va ijtimoiy rollarning o'zaro ta'siri natijasida kishilar altruistik xatti-harakatlarni sodir etadilar.

Shaxs guruhviy qo'llab-quvvatlanishga erishish uchun ijtimoiy mas'uliyat va ijtimoiy kompetentlikka asoslangan altruizmga asoslangan xulq-atvorni sodir etadi. M. Snayder va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, insonlar hech qanday manfaatlarsiz ham ijtimoiy mas'uliyat hissi ta'sirida o'z shaxsini sir tutgan holda yordam beradilar. Bu orqali inson o'z qadr-qimmatini, o'z "Men"iga beradigan bahosini ortishiga erishadi. Boshqachasiga aytganda, o'zida "Meni" haqidagi tasavvurlarini pozitiv tomonga o'zgarishiga sabab bo'ladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodda ijtimoiy mas'uliyat hissini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bolada ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

- bolaning guruhdagi pozitiv faolligini qo'llab-quvvatlash;
- bolaning ijtimoiy faolligini oshirish uchun uni jamoat ishlariga jalb qilish;
- shaxslararo muloqotga kirishish madaniyatini, ya'ni kommunikativ kompetentlikni, ijtimoiy persepsiyani shakllantirish;
- o'z-o'ziga beradigan bahoni oshirish;
- bolada "ijtimoiy keraklik hissini" tarbiyalash.

Shaxsdagi ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda ijtimoiy kompetentlikning o'ni beqiyosdir. Bolada ijtimoiy kopotentlik hissi, ya'ni kimgadir qiyin vaziyatlarda qanday yordam berish ko'nikmasi mavjud bo'lsagina u altruizmni namoyon qiladi. Masalan, agar 5 sinf o'quvchisiga "jahon adabiyoti durdonalari" ruknida ma'lumot to'plash topshirig'i berilsa, bu holatda aynan shu mavzu bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan o'quvchigina qiynalayotgan sinfdoshiga yordam berishi mumkin. Shaxs kimgadir yordam berishidan oldin yordam berish usullaridan xabardor bo'lishi aynan ijtimoiy kompetentlikni belgilab beradi.

Voyaga yetayotgan bolada ijtimoiy mas'uliyat va kompetentlikni shakllanishida ota-ona, murabbiy, pedagog va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit birdek ma'suldir.

**Psixologik omillar** shaxsiy "Men"ni psixologik himoyalash (aybdorlik hissidan qutilish), o'z-o'ziga bahoning ortishi, o'zini o'zi nazorat qilish, o'ziga ishonchning vujudga kelishi, shaxsiy qadr-qimmatni anglab yetish bilan bog'liq omillar majmuasidir. Jumladan, Z.Freydning konsepsiyasida altruizmni namoyon bo'lishi subyektning aybdorlik hissini susaytirishga bo'lgan nevroitik ehtiyoji yoki siqib chiqarilgan dastlabki egoizmni kompensatsiyalash sifatida ko'rib chiqilgan. Ushbu fikrni X.Xekxauzen ham ta'kidlab o'tgan, ya'ni aybdorlik hissi insonlarni altruizmga moyilligini oshiradi.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, aybdorlik hissi kishilarning eng og'riqli hislaridan biridir, og'riqlik darajasi kuchliligidan, hatto undan qutilish uchun turli psixologik himoya mexanizmlari ham ishlab chiqilgan. Altruizm – bu aybdorlik hissidan qochishning eng ishonchli usulidir, deb qaralgan. Bu borada Devid Mak-Millen va Djeym Ostinar ham tadqiqotlar olib borganlar. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, shaxs o'z aybini anglaganidan so'ng iloji boricha atrofdagilarga, yaqinlariga beg'araz yordam berishga intilar ekan, go'yoki o'zgalarga yordam berish orqali o'z aybini yuvishi mumkindek o'zini his qilar ekan. K.Izard fikricha<sup>5</sup>, aybdorlik

<sup>5</sup> Майерс Д. Социальная психология. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 639 с.

hissi ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalashning asosiy omili bo'lib, shaxs aybdorlik hissini kamaytirish uchun altruistik xulqni sodir etadi. Psixologik manbalarning tahlili asosida shuni aytish mumkinki, altruistik xulq shaxsning axloqiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan intellektual tipdagi psixologik himoya mexanizmidir.

Bolaning altruistik xulq-atvorini qo'llab-quvvatlash shaxsning o'z-o'ziga bahosini orttirishiga va shaxsiy qadr-qimmat hissini o'zgalarning e'tirofi orqali mustahkamlashga erishiladi. Har birimizda "ichki manometr" mavjud bo'lib, o'zimizni qanday baholashimiz, o'zimizni qanday his qilayotganimizni, o'zimizdan qoniqayotgan yoki qoniqmayotganimizni aniqlab beradi. O'z shaxsimizdan qoniqqanligimizning bahosini ahamiyati katta. Chunki, o'ziga adekvat baho beradigan shaxs biror qarorga kelsa, albatta o'ziga katta mas'uliyatni oladi. Natijada shaxsda ijtimoiy mas'uliyat, empatiya bilan birga altruistik xulq motivlari ham shakllanadi.

Umuman olganda, altruizmni namoyon qiluvchi yoki uning yuzaga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi qator tashqi, ya'ni vaziyat, ijtimoiy muhit bilan bog'liq omillar mavjud-ki, ularning har biri insonlarni altruistik xatti-harakatni sodir etishida ma'lum ma'noda o'z o'rniga ega. Biroq, shaxsiy sifatlar deb atalmish altruizmning ichki omillarini (shaxs xususiyatlari, irodaviy sifatleri) shakllanganligi altruistik xulq-atvorning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-406 / <http://lex.uz>
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 48.
3. Битянова М.Р. Социальная психология. – 2-е издание дополненное и переработанное. – Москва: Питер, 2008. – С. 162-167
4. Botirov V.M. "O'zbek milliy karakteri shakllanishiga qadriyatlar ta'sirining psixologik xususiyatlari" dis. avtoreferati. – Toshkent: TDPU, 2011. – B 6-8.
5. Ильин Е.П. Психология помощи: Альтруизм, эгоизм, эмпатия. – Санкт-Петербург: Питер, 2013. – С. 254-261.
6. Кравченко С. Предвосхищение. Том 2. Словарь с комментариями. – Москва: ЛитРес, 2018. – 465 с.
7. Креч Д, Крагчфилд Р, Ливсон И. Нравственность, агрессия справедливость // Элементы психологии. – Москва, 1992.
8. Майерс Д. Социальная психология. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 639 с.
9. Соловьёв В.В. Оправдание добра // В.В.Соловьёв Соч в 2 тт. Т.1. – Москва: Мысль, 1988. – С. 152-169



**Baykunosova Gulmira Yuldibayeva,**  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti,  
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
[g.n.baykunosova@gmail.com](mailto:g.n.baykunosova@gmail.com)

## IJTIMOY TARMOQ FOYDALANUVCHILARI ORASIDA HASAD HISSI NAMOYON BO'LISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

**Annotatsiya.** Maqolada shaxsda hasad hissi namoyon bo'lishi va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida hasadning rivojlanish omillari haqida ilmiy mulohaza va takliflar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** hasad, havas, emotsional reaksiyalar, dushmanlik, motivatsiya, ijtimoiylashish, oila, narsissizm.

**Аннотация.** В статье представлены научные замечания и предложения о проявление зависти у человека и факторы развития зависти у пользователей социальных сетей.

**Ключевые слова:** черная зависть, белая зависть, эмоциональные реакции, враждебность, мотивация, социализация, семья, нарциссизм.

**Annotation.** The article presents scientific comments and proposals on the manifestation of envy in a person and factors in the development of envy among users of social networks.

**Keywords:** black envy, white envy, emotional reactions, hostility, motivation, socialization, family, narcissism.

**Kirish.** Bugungi kunda deyarli har bir inson ijtimoiy tarmoqda o'z sahifasiga ega. Hatto yarim asrdan ko'proq vaqt oldin tug'ilgan odamlar ham, yosh avlod bilan birga, qarindoshlari, do'stlari va mashhur bloggerlarning hayotini kuzatib boradilar.

Hasadgo'y odam o'z fikrini g'azab va salbiy impulslar bilan cheklaydi. Bunday odam o'z yutuqlarini qadrlamaydi va doimo o'zini boshqalar bilan taqqoslaydi. Bu o'z hayotidan norozilikni va boshqa odamning o'rnida bo'lish istagini keltirib chiqaradi.

Psixologiya fanida hasadning ta'rifi ko'p, ammo ommaviy tushunchadagi hasadgo'y haqidagi ta'rif ma'nosini ochib beradi. Hasadgo'y kimgadir nasib etmagan baxtga, omadga, davlatga, qobiliyat

yoki hayotga erisholmay, alamidan ichi kuygan kimsadir.


Hasad shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hasadgo'yda xavotirlilik, sirlilik, to'liqsizlik kompleksidan iztirobga tushish, norozilik kabi xususiyatlar namoyon bo'ladi. Bunda har ikki tomon – hasad qilayotgan va hasad qilinayotgan shaxs ham jabr ko'radi. Subyekt ijtimoiy hayotidagi hasad muammosiga e'tiborimizni qaratar ekanmiz, hasad nafaqat o'zganing hayotini, balki o'zining hayotini ham buzadi. Sababi hasadgo'y shaxslilik darajasida ma'lum destruksiyalarni boshdan kechirib, unga o'z-o'zini rivojlantirishda real yutuqlarga erishishida xalaqit beradi.

Hozirgi globallashgan texnika taraqqiyoti insonlarning hasadi kuchayishiga sabab bo'lmoqda.



Ijtimoiy tarmoq inson hayotining ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib qolmoqda. Inson hayot tarzi, qiziqishi, o‘y-xayollari, hattoki orzu-maqсадlarini ham ijtimoiy tarmoq orqali bilib olish imkoniyati bo‘lmoqda. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, ijtimoiy tarmoqda joylashtirilayotgan fotosuratlar orqali shaxs hayoti haqida ma‘lumotlar ommaga tez yoyilmoqda. Ma‘lum bo‘lishicha, dunyoning yirik ijtimoiy tarmog‘i “Facebook” insonlarni o‘ziga achinish, o‘zgalar bilan nafratlanish orqali baxtsiz qilib qo‘ymoqda. Bu haqida “Los Angels Times” bayonot beradi. Ularning qayd etishicha, Gumboldt nomli Berlin universitetida olib borilgan tadqiqot natijasi “Insoniyat baxtiga “Facebook”dagi hasad xavf tug‘diradimi?” deb nomlanadi. Bu tadqiqotda ma‘lum bo‘lishicha, sinaluvchilar 24 va undan yuqori yoshli respondentlar bo‘lib, ularning 56,3 foizi ijtimoiy tarmoqda do‘stining fotosuratlarini tomosha qilish chog‘ida, (14,1%) tanishining ijtimoiy faol ekanligiga hasad hissini tuyushini tan olgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, insonlar “Facebook” ijtimoiy tarmog‘i stress chaqiruvchi omil ekanini tan olishgan.

**Asosiy qism.** Biz tadqiqotimizda mamlakatimizda “ijtimoiy tarmoq effekti” fenomenini tadqiq etishni maqsad qildik. Biz respondentlarda “Ijtimoiy tarmoq va hasad” nomli so‘rovnoma o‘tkazdik. Bu so‘rovnoma mualliflik so‘rovnomasini bo‘lib, biz u orqali “Nima uchun ijtimoiy tarmoqqa murojaat etasiz?” degan savol bilan respondentlarga murojaat etdik. Olingan natijalarni quyida aks ettiramiz:




**1-rasm. Respondentlarning ijtimoiy tarmoqqa murojaat qilish sabablari**

Yuqoridagi rasmda ko‘rinib turganidek, 28% respondent “o‘zgalar hayotini miriqib tomosha qilish uchun”, 23% respondent “shaxsiy fotosuratlarimni joylashtirish uchun”, 49% respondent esa “ijtimoiy tarmoqdan foydalanmasligini” bildirgan. Demak, biz o‘tkazgan so‘rovnomaga ko‘ra, yoshlarning aksariyati ijtimoiy tarmoqdan foydalanmasligi,

foydalanadiganlari esa o‘zgalarning hayotini tomosha qilishi, havas yoki hasad hissini tuyishini yoki o‘z hayotini boshqalarga ko‘z-ko‘z qilish bilan “butun olamga jar solish”ni xohlashini ma‘lum qilgan.

So‘rovnomadagi navbatdagi fikr “Ijtimoiy tarmoq sizni nimasi bilan o‘ziga jalb qilgan?” degan savolga olingan javoblarni quyidagi rasmda keltiramiz.



**2-rasm. Respondentlarni qaysi ijtimoiy tarmoq o‘ziga jalb qilishi**

Yuqoridagi rasmda 38% respondent “o‘z hayotimni o‘zgalar bilan bo‘lishish uchun”, 13% respondent esa “tanishlarim mening hayotimni kuzatib borishi uchun”, deb javob bergan. Bundan ko‘rinib turibdiki, respondentlar ochiqdan-ochiq hasad hissini tan olmasalar ham, o‘z hayotini ko‘z-ko‘z qilish, maqtanish omili ustunroq ekanligi ularda qisman ana shu hisning mavjud ekanligini isbotlaydi.

So‘rovnomada “Tanishingizni fotosuratlarida o‘zining ideal, faol, hayot tarzini, sayohatlari aks etgani tasvirlangan bo‘lsa, o‘zingizni qanday his etasiz?” degan savolga quyidagicha javoblar olindi.


*I-jadval*

**Respondentlarning ijtimoiy tarmoqlarga rasmlarga munosabati**

№	“Tanishingizni o‘zining ideal va faol hayot tarzi, sayohatlari aks etgan fotosuratlarini o‘z sahifasiga joylashtirgan bo‘lsa, siz o‘zingizni qanday his etasiz?”	%
1	Havas qilaman	54%
2	Beфарq bo‘laman	33 %
3	Hasad qilaman	13%

Yuqoridagi savolga 54% respondent “havas qilaman”, 32% respondent “befarq bo‘laman”, faqatgina 3% respondent “hasad qilaman” deb javob bergan. Befarq bo‘lish ham do‘stining ustunligini tan olmaslik hisoblanadi. Demak, bu javobni hasad hissining ko‘rsatkichi deya olamiz.


Bunga qo‘shimcha ravishda yanada qiziq ma’lumotni quyida keltirilgan savol-javoblar orqali oldik. Ya’ni so‘rovnomadagi “Do‘stingiz shunday hayotga loyiqmi?” degan savolga berilgan javoblar haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun quyidagi rasmni hosil qildik.



**3-rasm. Respondentlarning tanish insonlari hayotiga havas va hasad qilishi ko‘rsatkichlari**

Yuqoridagi rasmda 37% respondent “ha, loyiq”, 23 foizi “yo‘q, loyiq emas”, 40 foizi esa “bir nima deyishim qiyin”, deya javob bergan. “Ha, loyiq” javobini bergan respondentlar tanishlariga havas qilishgan, “yo‘q, loyiq emas” javobini belgilaganlar esa beixtiyor hasad hissini tuyushgan.

So‘rovnomada “Siz uning o‘rnida bo‘lib qolishni istagan bo‘larmidingiz?” degan savolga respondentlardan quyidagicha javoblar olindi:



**4-rasm. Respondentlarning do‘stining hayotiga nisbatan munosabati**

29 foiz respondent “ha”, 26 foizi “yo‘q”, 45 foizi esa “bir nima deyishim qiyin” deb javob bergan. Ko‘rinib turibdiki, respondentlar orasida javob berishdagi ikkilanish hasad hissini tan olishdan

qo‘rqish, uyalish, jamiyat tomonidan tanqid qilishdan xavfsirash omilining kuchli ekanidan dalolat beradi. Bizning tadqiqotimiz xorij olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotga unchalik mos kelmasa-da, etnik-mental xususiyatlar ochib berilgan. Jamiyatimizda shaxsdagi hasadgo‘ylik salbiy illat sifatida qaralishi uni tan olmaslikning asosiy sabablari hisoblanadi. Lekin javoblardagi ikkilanishlar respondentlar orasida hasad hissining qisman mavjud ekanligi, lekin tan olishdan qo‘rqishini anglatadi. So‘rovnoma natijalarining bunday chiqishiga, balki, yosh xususiyati ham sabab bo‘lgandir. Chunki xorijda olib borilgan mana shunday ko‘rinishdagi tadqiqotdagi respondentlar soni 24 va undan katta yoshlilarda, bizda esa bu o‘spirinlar orasida kuzatilganiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘spirinlarga xos yosh xususiyatlari hali hasad hissining mavjud ekanligini tan olmaslikka, ulardagi g‘urur yoki hayotlari oldinda, ularni ko‘p narsalar kutayotganiga ishonch sabab bo‘ladi. Tadqiqot davomida hasad hissining yosh xususiyatlarini o‘rganganimizda, ana shu holatga ham guvoh bo‘ldik. Ya’ni yosh ulg‘aygani sari shaxsda hasad hissi ortib boraveradi. Bunga ularning yosh o‘tishi bilan o‘zlarini boshqalarga nisbatan kuchsiz ekanligini tan olishi bilan bog‘liq holat, deb ayta olamiz.

**Xulosa.** Hasad insoniyat paydo bo‘lgan davrlardan, to hozirgi kungacha mavjud bo‘lgan illat hisoblanadi. Hasad hissini umrida bir marotaba his qilmagan inson bo‘lmasa kerak. Shuning sababli ham olimlar bu muammoni o‘rganishga doim qiziqish bildirgan. Biz tadqiqot yordamida hasadgo‘ylik xususiyatining milliy muhitda shakllanishini kuzatdik. Haqiqatan ham, xorij olimlarining tadqiqotlaridan farq qiluvchi natijalarni qo‘lga kiritdik. Tadqiqot davomida respondentlarimizda hasad-dushmanlik va hasad-ma’uslik turi ko‘proq rivojlanganligini aniqladik. Bu mental xususiyatga, tarbiyaga bog‘liq degan xulosaga keldik.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ильин Е.П. Психология зависти, враждебности и тщеславия. Серия «Мастера психологии». – Санкт-Петербург: Питер, 2014. – 208 с.
2. Шамионов Р.М. Психология субъективного благополучия // Вопросы социальной психологии личности. – Саратов: Саратовский гос.ун-т, 2003. – № 4. – С. 27-41.
3. Baumel A., Berant E. The role of attachment styles in malicious envy // Journal of Research in Personality. 2015. #55. pp. 1–9.
4. Cooper D. Equally and Envy // Journal of Philosophy of Education. 1982. v. 16. pp. 34-42.
5. Crusius J., Lange J. What Catches the Envious Eye? Attentional Biases Within Malicious and Benign Envy // Journal of Experimental Social Psychology. 2014. – №55. pp. 1-11.



**Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna,**  
*Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzuridagi  
"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti  
kichik ilmiy xodimi*

## **BOLALARNING MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIGA MOSLASHISH JARAYONINI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHI- PEDAGOGLARNING O'RNI**

**Annotatsiya.** Maqola ilk bolalik davridagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitlariga moslashtirishning psixologik omillarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Adabiyotlar tahlili o'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi moslashish shartlari, oiladagi bolalar soni va moslashish davrining davomiyligi o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida bolalarni maktabgacha ta'lim muassasi sharoitlariga moslashtirishni optimallashtirishga qaratilgan, ya'ni bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotining ijtimoiy-madaniy muhitiga tezroq va xavfsizroq moslashishi yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tayanch so'zlar:** ilk bolalik davri, moslashuv, tarbiyachi-pedagog, o'yin faoliyati, ijtimoiylashuv, ota-ona, maktabgacha ta'lim tashkiloti.

**Аннотация.** Статья посвящена анализу психологических факторов адаптации детей раннего детства к условиям организации дошкольного образования. На основе анализа литературы показано, что существует зависимость между условиями адаптации мальчиков и девочек, количеством детей в семье и длительностью адаптационного периода. На основе анализа психолого-педагогической литературы разработаны практические рекомендации по более быстрой и безопасной адаптации ребенка к социокультурной среде ДОУ, направленные на оптимизацию адаптации детей к условиям ДОУ.

**Ключевые слова:** раннее детство, адаптация, воспитатель-педагог, игровая деятельность, социализация, родители, организация дошкольного образования.

**Abstract.** The article is devoted to the analysis of psychological factors of adaptation of children in early childhood to the conditions of preschool education organization. Based on the analysis of the literature, it is shown that there is a relationship between the conditions of adaptation between boys and girls, the number of children in the family and the duration of the adaptation period. Based on the analysis of psychological-pedagogical literature, practical recommendations were developed for the faster and safer adaptation of the child to the socio-cultural environment of the preschool educational institution aimed at optimizing the adaptation of children to the conditions of the preschool educational institution.

**Keywords:** early childhood, adaptation, educator-pedagogue, game activity, socialization, parents, preschool education organization.

**Kirish.** Moslashuv muammosiga doir turli yondashuvlarda ta'kidlanishicha, bola ilk marotaba bog'chaga kelganida u o'zini yangi, g'ayrioddiy muhitda topadi, bu esa unda ma'lum

hissiy stressni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu bosqichda tarbiyachining asosiy vazifasi bolaga stressni yengish va yangi sharoitlarga moslashishga yordam berishdir. Xorij psixologiyasida moslashish



aspektlarini E.Shmidt-Kolmer<sup>1</sup>, A.Adler<sup>2</sup> va F.Dolto<sup>3</sup> o'rgangan. Mahalliy psixologik adabiyotlarda bolalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitlariga moslashtirish muammosini o'rganishga doir yondashuvlarda, asosan, ijtimoiy moslashuv masalalari G.F.Kumarin<sup>4</sup>, A.V.Mudrik<sup>5</sup>, N.M.Aksarina<sup>6</sup>, A.S.Rusakova<sup>7</sup>, S.N.Teplyuk<sup>8</sup>, L.I.Bojovich<sup>9</sup>, M.I.Lisina<sup>10</sup> va boshqalarning ishlarida tadbiq etilgan bo'lib, ularda bolalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitlariga psixologik moslashuvi xususiyatlari, shuningdek, bolaning psixologik farovonligi omillari va maktabgacha yoshdagi bola intellektual rivojlanishining asosiy qonuniyatlari muhokama qilinadi. Hayotning uchinchi yilida bolalarning protsessual o'yinlari bolaning o'yin faoliyati rivojlanishining tabiiy bosqichi sifatida rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni moslashtirish muammosi dolzarb va ahamiyatli bo'lib, mazkur jihat o'qituvchilar va ota-onalar bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasida moslashtirishga yetarlicha jiddiy munosabatda emasliklari bilan ham xarakterlidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti

<sup>1</sup> Социальная адаптация детей в дошкольных учреждениях / Под ред. Тонковой-Ямпольской Р.В. Шмидт-Кольмер Е. Атанасовой-Буковой А. – Москва, 2008. – 320 с.

<sup>2</sup> Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. – Москва: Мысль, 1995. – 268 с.

<sup>3</sup> Франсуаза Д. На стороне ребенка / Д.Франсуаза. – Санкт-Петербург: Издательство «Петербург – XXI век», 1997.

<sup>4</sup> Предшкольное образование: содержание и методика: Экспериментальная программа дополнительного профессионального образования / науч. ред.: Кумарина Г.Ф. О.А. Степанов О.А. – Санкт-Петербург: КАРО, 2006. – 96 с.

<sup>5</sup> Мудрик А.В. Социальная педагогика: Учеб. для студ. пед. вузов / Под ред. Слостенина В.А. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Изд. центр «Академия», 2000. – 200 с.

<sup>6</sup> Аксарина Н.М., Голубева Л.Г. Характер адаптации детей раннего возраста при поступлении в детское учреждение. – Москва: Просвещение, 1974.

<sup>7</sup> Русаков А.С. Адаптация ребёнка к детскому саду. Советы педагогам и родителям: Сборник. – Санкт-Петербург: Изд-во «Речь», 2010. – 128 с.

<sup>8</sup> Теплюк С.Н. Актуальные проблемы развития и воспитания детей от рождения до трех лет: Пособие для педагогов дошкольных учреждений. – Москва: Мозаика-синтез, 2010. – 144 с.

<sup>9</sup> Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. (Психологическое исследование.) – Москва: Просвещение, 1968. – 464 с.

<sup>10</sup> Лисина М.И. Влияние общения с взрослыми на психическое здоровье ребенка // Дошкольное воспитание, 1982. – № 8.

xodimlari hisoblangan tarbiyachi-pedagoglarning har doim ham yangi kelgan bolalarning molashuvi bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish darajasi yetarli emas. Ba'zi ota-onalar adaptiv stressning namoyon bo'lishini tarbiyachi-pedagoglarning "mas'uliyatsizligi" bilan bog'laydi. Aslida, boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolaning moslashuv tabiati nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotiga, balki maktabga moslashish jarayonida ham uning sog'lig'ining dinamikasini tavsiflash uchun prognostik testlarning o'tkazilishi bilan birga olib boriladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashish davrida bolalarning sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq muammolarni hal qilish maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir<sup>11</sup>.

Moslashuv (lot. adaptatio) atamasi "moslashish" degan ma'noni anglatadi. Bolalarning bog'chaga moslashuvi – uning yangi sharoitlarga moslashishini anglatadi. Mazkur jarayon o'ziga bolaning atrofidagi odamlar, kundalik tartib, yangi qoidalar, ota-onalarning yo'qligini qamrab oladi. Bu paytdan boshlab bolaning faol ijtimoiylashuvi boshlanadi, bu esa ba'zi qiyinchiliklar bilan birga kechishi mumkin<sup>12</sup>.

Moslashish davrida hissiy va jismoniy beqarorlikni kuzatish mumkin, ular: bola tez-tez yig'lashi, onasini sog'inishi, arzimas narsalardan xafa bo'lishi, ovqatlanish yoki uxlashni to'xtatishi kabilar. Lekin bu odatiy holat hisoblanishiga qaramay, tarbiyachi bor e'tiborini bolaning tez va muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etishga qaratishi kerak.

Adaptatsiya jarayoni turli yo'llar bilan davom etishi mumkin. Moslashuv jarayonining bir necha darajalari mavjud:

1. Yengil darajadagi moslashuv.
2. O'rta darajadagi moslashuv.
3. Og'ir darajadagi moslashuv<sup>13</sup>.

<sup>11</sup> Спицына В.В., Сарайкина Е.А. Психологические предпосылки развития игровой деятельности в раннем детстве // Концепт. Спецвыпуск, 2013. – № 8.

<sup>12</sup> Роньжина А.С. Занятия психолога с детьми 2–4 лет в период адаптации к дошкольному учреждению: Пособие. /А.С. Роньжина. – Москва: Книголюб, 2003. – 72 с.

<sup>13</sup> Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти томах. Т.3. Проблемы развития психики / Под ред. А.М. Матюшкина. – Москва: Педагогика, 1983. – 368 с.

Yengil moshlashish jarayonida birinchi kunlardan oq bola zavq bilan bogʻchaga boradi, u yerda boʻlishni yaxshi koʻradi. Baʼzan rad etish daqiqalari boʻlishi mumkin, lekin ular tezda oʻtib ketadi. U tengdoshlari bilan yaxshi munosabatda boʻladi, kamdan kam kasal boʻladi, tarbiyachiga boʻysunadi va oʻzini oʻzi band qilishni biladi. Moslashuv davri 7–14 kun davom etadi.

Oʻrta moslashish jarayonida bola ota-onasi bilan xayrlashgandan keyingi dastlabki daqiqalarda keskinlik yoki umidsizlikni boshdan kechiradi, shundan soʻng u tezda oʻyinga qoʻshiladi. U tarbiyachiga boʻysunadi, uning iltimoslarini bajaradi, lekin baʼzida ularni eʼtiborsiz qoldirishi mumkin. Boshqa bolalar bilan doimiy muloqotda boʻlishi natijasida u tez-tez kasal boʻlib qolishi mumkin. Biroq kasallik tez va asoratsiz davom etadi. Moslashuv davri 14–21 kuni tashkil etadi.

Ogʻir moslashish jarayonida bola bolalar bogʻchasi bilan bogʻliq har qanday soʻzni eshitganida yigʻlashga, qaysarlik qilishga tushib, dod-voy sola boshlaydi. Bogʻchaga uni ota-onasining bagʻridan “ajratib”, “yulib” olib kelishga toʻgʻri keladi. Mazkur holat bolada stressni yuzaga keltiradi, natijada bola tez-tez kasal boʻlib qoladi. Baʼzan u ilgari olingan koʻnikmalarini yoʻqotishi mumkin, masalan, raqamlar yoki harflarni unutish. Bu moslashishning eng qiyin shakli boʻlib, kattalardan koʻproq eʼtibor talab qiladi. Moslashuv davri 60 kungacha yoki undan koʻproq muddatni qamrab oladi.

Bolani uzoq vaqt davomida stressga duchor qilish mumkin emas. Bir muncha vaqt oʻtgach, u normal holatga qaytadi yoki qattiq moslashish darajasida kasal boʻlib qolishi mumkin. Moslashuv davrining davomiyligi har bir kishi uchun individualdir. Bu bolaning yoshiga, ijtimoiy aloqalar soniga, temperamentiga, hissiy yetuklikka va ota-onasining bola bilan kechadigan munosabatlariga ham bogʻliq. Agar bola allaqachon biror-bir jamoada muloqot qilish tajribasiga yoki katta oilaga ega boʻlsa, u ikki kun ichida bolalar bogʻchasiga moslashishi mumkin. Boshqalar esa bir necha hafta yoki oy davomida bogʻcha muhitiga moslashib keta oladi. Bolaning bolalar bogʻchasiga moslashishiga yordam berish uchun tarbiyachi va ota-ona hamkorlikda ishlashi zarur<sup>14</sup>.

<sup>14</sup> Эльконин Д.Б. Избранные психологические труды. – Москва: Педагогика, 1989. – 560 с.

Tarbiyachi bolaning moslashuv jarayonida muhim rol oʻynaydi. Uning bola va ota-onalar bilan oʻzaro munosabatlarining sifati butun jarayonning qanday oʻtishi va qanchalik tez tugashiga taʼsir qiladi.

Adaptatsiya jarayoni maʼlum “jarohatli” holatlarsiz kechishi uchun tarbiyachi-pedagog, birinchi navbatda, ota-onalar bilan ijtimoiy munosabatlarni oʻrnatishi kerak. Bunda tarbiyachi-pedagogga quyidagilar tavsiya etiladi:

Farzandini u yerga olib kelishdan oldin ota-onalarni bolalar bogʻchasiga sayohatga olib borish. Bolalari qayerda uxlashini, oʻynashini, ovqatlanishini va oʻqishini koʻrishi. Ularning kun tartibi bilan tanishtirish. Ota-onalarning xotirjamligi bolaning bolalar bogʻchasiga ijobiy munosabatining kaliti ekanini, ota-onaning har qanday hayajoni bolalarga uzatilishini tushuntirish lozim.

Bola guruhda boʻlsa, ushbu guruhning ota-onalari uchun WhatsApp yoki Telegram kabi tarmoqlarda suhbat yarating. Savollarga javob berish, yangiliklar va eʼlonlarni joylashtirish orqali ushbu yozishmalarni faol saqlang. Bunday suhbat ota-onalarga nazorat va xotirjamlik hissini beradi, chunki ular istalgan vaqtda oʻz farzandi haqida maʼlumot olishlari mumkin.

Ota-onalar bolalarini bogʻchaga 5-10 daqiqalik farq bilan olib kelishini tashkil qiling. Bu har bir bola bilan alohida uchrashish va u bilan aloqa oʻrnatish imkonini berishi bilan birga ota-onadan ajralish jarayonining “ogʻriqsiz” kechishini taʼminlaydi<sup>15</sup>.

Shu oʻrinda ota-onalarga ham farzandining muvaffaqiyatli moslashuvini taʼminlashda eʼtibor berishi lozim boʻlgan jihatlar mavjud boʻlib, ularga quyidagilarni kiritib oʻtish mumkin:

– farzandlaringiz sizning yoningizda oʻzlarini xavfsiz his qilishi uchun ular bilan ishonchli munosabatlar oʻrnatish;

– farzandingizni maktabgacha taʼlim tashkilotidan olish uchun borganingizda unga yumshoq munosabatda boʻling. Samimiy xayrixohlik koʻrsating, tabassum qiling, oʻz yordamingizni taklif qiling, uning ishlariga qiziqish bildiring, masalan, uning kayfiyati va ruhiy holati haqida soʻrang. Birinchi munosabatdanoq bolada sizga ishonish

<sup>15</sup> Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с.

mumkinligi, siz doimo yordam beradigan do'st ekanligingiz haqidagi taassurot paydo bo'lishi kerak;

– farzandingiz bilan norasmiy, do'stona muloqot qiling. Masalan, sayr uyishtirib turing. Shunda bola sizni bog'chada ko'rganida do'st sifatida qabul qiladi.

*Tarbiyachilarning bolalar bilan munosabatida:*

– bolalar o'zlarini qulay va xavfsiz his qilishi uchun guruhda iliq va xayrixohlik muhitini yarating. Buni dekor elementlari – gullar, kichik uy (miniatyura)lar yoki shaxsiy hayot uchun burchaklar yordamida amalga oshirish mumkin. Ularning yonida tanish narsa-buyumlar bo'lishi uchun bolalar o'z o'yinchoqlarini olib kelishi mumkin;

– vaqti-vaqti bilan bolalarni bag'ringizga bosing, quchoqlang. Taktil aloqa ularga xavfsizlik va ishonch hissi baxsh etib, tezroq moslashishiga yordam beradi;

– hamma bola ham doim otasi yoki onasining yonida bo'lishni xohlaydi. Bolalarning bu ehtiyojini bog'chada “oilaviy albom” yaratish orqali qondirishingiz mumkin. Ya'ni kutib olish va kuzatish uchun mo'ljallangan xonaga bolalar otanasining fotosuratini joylashtiring, bola istalgan payti ularni ko'rishi uchun sharoit yarating;

– bolalarni yakka va guruh bo'lib o'ynaladigan qiziqarli o'yinlarga jalb qiling. Bundan tashqari, o'yinlar har qanday vaziyatda yordamga keladigan tarbiyachi timsolidagi yetakchi obrazini shakllantirishga yordam beradi<sup>16</sup>.

Bolani bolalar bog'chasiga moslashtirish bosqichma-bosqich davom etadigan jarayon bo'lib, tarbiyachi-pedagogning vazifasi bu bosqichlarni tartibga solish va ota-onalarni yo'naltirishdir.

Ba'zi bolalar bilan ular bog'chaga chiqishidan avval ushbu muassasa yon atrofida (imkon bo'lsa ichida) kunduzi yoki kechqurun sayr qilishi ularning bog'chaga moslashishida yaxshi samara beradi. Bu kabi sayrlarda ona bola bilan qoladi. Moshlashish jarayonining yengil kechishi uchun birinchi haftada ona bolani bog'chaga bir necha marotaba ertalab olib kelishi, iloji bo'lsa, u bilan guruhda birga qolishi yoki u tabiat qo'ynidagi ertalabki sayrdan so'ng tashrif buyurishi maqsadga muvofiq.

<sup>16</sup> Остроухова А. Успешная Адаптация, 2008. – № 3.

Ikkinchi haftadan boshlab esa bolaning muassasada qolish vaqti tushlikkacha cho'ziladi. U boshqa bolalar bilan birga ovqatlanadi, shundan keyin ota-onasi yoki bobo-buvisi uni uyga olib boradi. Uchinchi va to'rtinchi haftalarda bolani kunduzgi uyquga qoldirib, uyqudan keyin yoki tushlikdan keyin olib ketish moslashishda yaxshi samara beradi<sup>17</sup>.

To'rtinchi haftadan keyin bolani to'liq kun davomida bolalar bog'chasida qoldirish mumkin. Moslashish davrida bola boshqa bolalarning ko'z yoshlari yoki qaysarliklariga guvoh bo'lmasligi uchun uni ertaroq yoki kechroq olib kelish kerak. Bolani uyda ovqatlantirish yaxshiroq, chunki ko'p bolalar notanish muhitda, ayniqsa, noodatiy muhitda ovqat yeyishni rad etadi.

Tarbiyachi-pedagog doimiy ravishda bolaning hissiy va jismoniy holatini kuzatib boradi. Biz bolaning moslashuvi yakuniga yetgani, u endi stressni boshdan kechirmasligini quyidagi holatlar orqali taxmin qilishimiz mumkin. Agar bola 7 kun davomida:

1. Hech qanday sababsiz yig'lamasa va ota-onasi haqida so'ramasa.
2. Tengdoshlari bilan zavq va qiziqish bilan o'ynasa, tarbiyachi bilan faol muloqotga kirishsa.
3. Yaxshi uxlasa, yaxshi ovqatlansa va kasal bo'lmasa.

Moslashuvning muvaffaqiyati va yakuniga yetish tezligi tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligiga bog'liq. Faqat jamoada ishlash, bolalar bog'chasida va uyda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish orqali bolani qisqa vaqt ichida bog'chaga tayyorlash va uning yangi jamoadagi ijtimoiylashuviga yordam berish mumkin.

<sup>17</sup> Смирнова Е.О. Диагностика психического развития детей от рождения до 3 лет: Методическое пособие для практических психологов / Смирнова Е.О., Галигузова Л.Н., Ермолова Т.В., Мещерякова С.Ю. – 2-е изд. испр. и доп. – Санкт-Петербург: Детство-пресс, 2005. – 144 с.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Социальная адаптация детей в дошкольных учреждениях / Под ред. Р.В. Тонковой-Ямпольской, Е. Шмидт-Кольмер, А. Атанасовой-Буковой. – Москва, 2008. – 320 с.
2. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. – Москва: Мысль, 1995. – 268 с.
3. Франсуаза Д. На стороне ребенка / Франсуаза Д. – Санкт-Петербург: Издательство «Петербург – XXI век», 1997.
4. Предшкольное образование: содержание и методика: Экспериментальная программа дополнительного профессионального образования / науч. ред.: Кумарина Г.Ф. Степанов О.А. – Санкт-Петербург: КАРО, 2006. – 96 с.
5. Мудрик А.В. Социальная педагогика: Учеб. для студ. пед. вузов / Под ред. В.А. Сластенина. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Изд. центр «Академия», 2000. – 200 с.
6. Аксарина Н.М., Голубева Л.Г. Характер адаптации детей раннего возраста при поступлении в детское учреждение. – Москва: Просвещение, 1974.
7. Русаков А.С. Адаптация ребёнка к детскому саду. Советы педагогам и родителям: Сборник. – Санкт-Петербург: Изд-во «Речь», 2010. – 128 с.
8. Теплюк С.Н. Актуальные проблемы развития и воспитания детей от рождения до трех лет: Пособие для педагогов дошкольных учреждений. – Москва: Мозаика-синтез, 2010. – 144 с.
9. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. (Психологическое исследование.) – Москва: Просвещение, 1968. – 464 с.
10. Лисина М.И. Влияние общения с взрослыми на психическое здоровье ребенка // Дошкольное воспитание, 1982. – № 8.
11. Роньжина А.С. Занятия психолога с детьми 2–4 лет в период адаптации к дошкольному учреждению: Пособие. /А.С. Роньжина А.С. – Москва: Книголюб, 2003. – 72 с.
12. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти томах. Т.3. Проблемы развития психики / Под ред. А.М. Матюшкина. – Москва: Педагогика, 1983. – 368 с.
13. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с.
14. Эльконин Д.Б. Избранные психологические труды. – Москва: Педагогика, 1989. – 560 с.
15. Остроухова А. Успешная адаптация, 2008. – № 3.
16. Смирнова Е.О. Диагностика психического развития детей от рождения до 3 лет: Методическое пособие для практических психологов / Е.О.Смирнова, Л.Н. Галигузова, Т.В. Ермолова, С.Ю. Мещерякова. – 2-е изд. испр. и доп. – Санкт-Петербург: Детство-пресс, 2005. – 144 с.
17. Спицына В.В., Сарайкина Е.А. Психологические предпосылки развития игровой деятельности в раннем детстве // Концепт. Спецвыпуск. – № 8, 2013. – ART 13576. – 0.8 п.л. URL: <http://e-koncept.ru/2015/13576.htm> Гос. рег. эл. № ФС 77-49965. – ISSN 2304-120X [время обращения: 27.09.2022].





**Туракулова Азиза,**

*Преподаватель кафедры Общей психологии*

*Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

*E-mail: [a.turakulova@nuu.uz](mailto:a.turakulova@nuu.uz)*

## ДЕТИ, ОСТАВШИЕСЯ ВНЕ ПОЛЯ ЗРЕНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА РАЗМЕЩЕНИЯ ДЕТЕЙ-СИРОТ

**Аннотация.** В настоящее время особую актуальность приобретает тема деинституционализации воспитательных учреждений, предназначенных для детей, оставшихся без попечения родителей. Тем не менее, данная практика является новой для Узбекистана, в связи с чем, необходимо учитывать все особенности реализации данного процесса, уметь объективно оценить преимущества и сложности, возникающие перед государством, имплементирующим данный подход. В данной статье приводятся статистические данные о детях, оставшихся без попечения родителей в различных зарубежных странах, анализируется международный опыт применения практики альтернативных форм опеки, а также раскрывается современная позиция Республики Узбекистан касательно деинституционализации и её возможные факторы и последствия, следующие за внедрением данной позиции.

**Ключевые слова:** деинституционализация, альтернативные формы опеки, социальная защита детей, дети-сироты, дети, оставшиеся без попечения родителей.

**Annotatsiya.** Hozirgi vaqtda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim muassasalarini institutsionalizatsiya qilish masalasi dolzarbdir. Biroq bu amaliyot O'zbekiston uchun yangilik bo'lib, shuning uchun bu jarayonni amalga oshirishning barcha xususiyatlarini hisobga olish, ushbu yondashuvni amalga oshiruvchi davlat uchun yuzaga keladigan afzallik va qiyinchiliklarni xolisona baholay olish zarur. Ushbu maqolada turli xorijiy mamlakatlarda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar keltirilgan, vasiylikning muqobil shakllari amaliyotini qo'llash bo'yicha xalqaro tajriba tahlil qilingan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining deinstitsionalizatsiya bo'yicha hozirgi pozitsiyasi va uning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan omillari hamda oqibatlarini ochib berilgan.

**Tayanch so'zlari:** deinstitsionalizatsiya, vasiylikning muqobil shakllari, bolalar, yetimlar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish.

**Annotation.** At present, the topic of deinstitutionalization of educational institutions for children without parental care is of particular relevance. Nevertheless, this practice is new for Uzbekistan, and in this regard, it is necessary to take into account all the features of the implementation of this process, to be able to objectively assess the advantages and difficulties arising for the state that implements this approach. This article provides statistical data on children left without parental care in various foreign countries, analyzes international experience in the practice of alternative forms of care, and reveals the current position of the Republic of Uzbekistan regarding deinstitutionalization and its possible factors and consequences following the implementation of this position.

**Keywords:** deinstitutionalization, alternative forms of care, social protection of children, orphans, children left without parental care.

**Введение.** Количество детей, остающихся на попечение государства, стремительно растет во всем мире, и причиной тому являются проблемы глобального характера, в числе которых можно выделить природные катаклизмы и стихийные бедствия, а также социальные (войны и конфликты) и политические факторы (бедность и массовая миграция).

Ежегодно в результате стихийных бедствий погибает около 500 000 человек и миллионы людей несут большие финансовые потери. Одним из самых разрушительных последствий этих бедствий, без сомнения, являются тысячи уязвимых детей, оставшихся без родителей. Стихийные бедствия различаются по размеру и тяжести, нанося разный ущерб, например, землетрясения приводят к потере родителей в таких странах, как Индонезия, Иран и Непал, в то время как в африканских странах это обычно засуха и голод (Unwin et al., 2021).

Согласно данным, представленным в Отчете *Nar C.* За 2021 год, количество детей, населяющих мир, составляет примерно 35% от общего населения страны, среди которых, дети в возрасте от 0 до 18 лет, потерявшие одного или обоих родителей примерно равно 140 миллионам (Nar, 2021).

При этом, как указывает автор, количество детей-сирот, потерявших обоих родителей составляет порядка 16 миллионов детей, из них проживающих в Азии – 15,5 миллионов детей, 52 миллиона в Африке – 52 миллиона, в Латинской Америке – 10 миллионов и в Восточной Европе и Центральной Азии - 7,3 миллиона (Nar, 2021).

Согласно данным, представленным на официальном сайте Министерства просвещения Российской Федерации, по итогам 2021 года общее число детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, в Российской Федерации равно 390 949 человек, тогда как в 2020 году данное число составляло 406 138 человек. При этом, приводится статистика мест содержания этих детей: 351 203 человека – на воспитании в семьях, 35 291 человек – под надзором в организациях для детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей; в отношении 4 455 человек исполнение обязанностей опекуна или попечителя возложено

на органы опеки и попечительства. Кроме того, указывается, что в 2021 году были устроены в семьи 49 183 ребенка, оставшихся без попечения родителей (в 2020 году было устроено 45 708 чел.) (Министерство Просвещения РФ, 2021).

Кроме того следует также отметить, что представленная статистика позволяет нам размышлять достаточно обобщенными категориями, поскольку существующие данные отражают картину лишь нескольких стран, и, как указывается в отчете ЮНИСЕФ, в настоящее время проанализированы ситуации в 140 государствах, однако к полноценному анализу доступны сведения гораздо более меньшего количества стран, поскольку нет точной информации по вопросам детей-сирот, и некоторые из стран не дают данных, к примеру, о том, какое количество детей проживают в частных учреждениях (Чевтаева, 2017; ЮНИСЕФ, 2021).

Jek Nilles uzoqdan ishlash va masofadan ishlash asoschisi sifatida tanilgan. Aynan u bu atamalarni birinchi marta 1973-yilda ilmiy muomalaga kiritgan. U Yevropa va Amerikada masofaviy ishlash bo'yicha tan olingan mutaxassis va masofadan ishlash asoslari bo'yicha bir qancha kitoblar, jumladan, so'nggi yillarda qayta-qayta nashr etilgan "Making Telecommuting Narrep" (1994) va "Managing Telework" (1998) kitoblarining muallifi hisoblanadi. Hozirda u 1980-yilda tashkil etilgan "JALA International telework consulting" firmasiga rahbarlik qiladi. 2000-yilda Yevropa Komissiyasi tomonidan buyurtma qilingan so'nggi xalqaro loyihalardan biri Yevropa Ittifoqining 10 ta davlati va AQShda televideniye va elektron tijoratning holati va kelajagi prognozini o'z ichiga oladi.

1982-yilda dunyodagi birinchi masofadan ishlaydigan mutaxassislardan biri Gil Gordon xususiy va jamoat tashkilotlari uchun teledasturlarni ishlab chiqdi. U televideniye va virtual ofislarni tashkil qilish bo'yicha dunyoda tan olingan mutaxassislardan biridir. G.Gordon 1984-yildan buyon bosma nashrlarda, 1999-yildan beri esa onlayn tarzda nashr etilayotgan tele-ishlash (telework) bo'yicha birinchi va haligacha eng yaxshi jurnallardan biri bo'lgan "Telecommuting Review" jurnalining muharriri. "Tele-commuting: "How to Make It Working for You and Your Company", ya'ni "Tele-commuting: "Uni siz va kompaniyangiz uchun qanday qilish kerak" (1986) va "Teleworking Explained" (1993) kitoblarining hammuallifi. Uning portali ([www.gilgordon.com](http://www.gilgordon.com)) masofaviy ishlashning barcha jihatlarini bo'yicha yaxshi tuzilgan manba bo'lib, u asos solgan konsalting firmasi o'z mijozlari orasida Ernst & Young, AT&T, Procter & Gambel kabi yirik kompaniyalarga ega. Shuningdek, u "TURN IT OFF: "Living with the Mixed Blessing of Today's Mobile-Office Technology" muallifi.<sup>1</sup>

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) "masofadan ishlash" fanini o'rganishga katta hissa qo'shdi. XMT mutaxassislari "Munosib mehnat" konsepsiyasi

<sup>1</sup> Библиография Г.Гордона составлена по материалам сайта «Gil Gordon Associates -Telecommuting, Telework and Alternative Officing.htm»// <http://www.telework.report.ru>

doirasida masofaviy bandlik tahlilini o'tkazdi. 2001-yil fevral oyida Vittorio Di Martino masofaviy ish tabiatidagi o'zgarishlarni o'rgangan va ushbu hodisani tushunish uchun yangi yondashuvlarni taklif qilgan. "Masofaviy ish" (Vittorio Di Martino, 2001)<sup>2</sup> nomli kitobini nashr etdi.

Har qanday yangi hodisani tahlil qilish uning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan sabablar va shartlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Mutaxassislar mehnat bozorida masofaviy mehnat munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan bir qator omillarni aniqladilar. Bularga quyidagilar kiradi: texnologik, ijtimoiy va psixologik, ijtimoiy va institutsional, shuningdek, mamlakatdagi iqtisodiy iqlim, kompaniya ichidagi imkoniyatlar va boshqalar.<sup>3</sup> Binobarin, ushbu bobning mazkur bandidagi asosiy vazifamiz masofaviy bandlikning paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy shartlari, omillari va sabablarini aniqlash hamda ularni tizimga kiritishdan iborat edi. Biz tahlil qilish uchun masofaviy bandlikning izchil rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan uchta asosiy shartni ajratib ko'rsatamiz. Bu: texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy, institutsional.

Albatta, bu shartlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ta'kidlash joizki, ushbu shartlarning birinchisi masofaviy bandlikning paydo bo'lishiga ham sabab, ham kelgusida izchil rivojlanishi omilidir. Yangi transmilliy infratuzilmani yaratish (masalan, Internet) bir vaqtlar birinchi sanoat inqilobi sabab bo'lgan tub o'zgarishlarga olib keldi. Tub o'zgarishlar nafaqat texnologiya va iqtisodiyot, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, uning qadriyatlar tizimi, bandlik va mehnat bozoriga ham ta'sir ko'rsatdi. Masalan, World Wide Webning joriy etilishi mehnat munosabatlari subyektlari uchun ham, korxonalarining mavjud bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar bankini shakllantirish bilan bog'liq mehnat bozoridagi imkoniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar oqimini sezilarli darajada kengaytirish va chet elda ishchilar mehnatidan foydalanadigan transmilliy kompaniyalarni yaratish imkonini berdi.

<sup>2</sup> Специальный советник по инновация и организационному благосостоянию в МОТ (Женева). Он также с 1992 года он был приглашенным профессором по политике занятости в один из Университетов Великобритания (University of Bath, UK).

<sup>3</sup> Ushopo Malto – 2001. 17 page

Texnologik dunyoning o'zgarishi, o'z navbatida, bandlikning yangi shakllarini yaratish uchun ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni shakllantiradi. Ushbu shartlar yangi bilimlarning paydo bo'lishi va mehnatni intellektuallashtirishda, mehnat operatsiyalarining samarali shakllarida va mahsulot ishlab chiqarish usullarida, mehnat munosabatlari subyektlarining mehnat jarayonidagi munosabatlarning yangi shakllarida va boshqalarda ifodalanadi. Ushbu o'zgarishlarni tahlil qilish, ularning mehnat bozori subyektlari uchun ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash nafaqat kompaniya ichidagi, balki davlat darajasida ham tartibga solish mexanizmlarini yaratish zaruriyatiga olib keladi. Va bu, o'z navbatida, yangi mehnat munosabatlarining institutsionalizatsiyasiga, ularning mavjudligi asoslarini tan olish va mustahkamlashga olib keladi, bu, umuman olganda, masofaviy bandlikni shakllantirish uchun institutsional shart-sharoitlarni ishlab chiqish bo'lib xizmat qiladi.

Keling, ushbu shartlarning har birini masofaviy bandlikni shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir qilish imkoniyati nuqtayi nazaridan tavsiflaymiz, shu bilan birga, ularning asosiy omillari va shart-sharoitlarining o'zgarishiga sabab bo'lgan faktlarni aniqlaymiz.

**Masofaviy bandlikni shakllantirishning texnologik sharti** va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar – *kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, texnologik fon, global tarmoq makonini – Internetni yaratish, internet iqtisodiyoti va elektron mehnat bozorini* rivojlantirish. Ushbu sanab o'tilgan omillarning har biri bir-birining rivojlanishini o'zaro belgilovchi texnologik va texnik o'zgarishlarning obyektiv jarayoniga asoslangan evolyutsion rivojlanishning o'ziga xos mantig'iga ega, bu esa, o'z navbatida, masofaviy bandlikni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladi. Telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish hozirgi vaqtda quyidagi sabablarga ko'ra va ular bilan bog'liq bo'lgan ma'lum texnologik imkoniyatlar bilan amalga oshirilishi mumkin:

– XX asrning birinchi yarmida radio, telefon va boshqa aloqa vositalarining paydo bo'lishi bilan, bu esa, o'z navbatida, axborot oqimlarining paydo bo'lishiga olib keldi va transmilliy sanoat iqtisodiyotini yaratishga olib keldi.

– O'ttiz yil avval axborot sanoati infratuzilmasini tubdan o'zgartirgan shaxsiy kompyuterning paydo bo'lishi bilan.

– Shaxsiy kompyuterning telekommunikatsiyalar bilan integratsiyalashuvi bilan, bu infokommunikatsiyalar va kibermakonning keyingi rivojlanishini belgilab berdi, bu esa bandlik sohasidagi subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mutlaqo yangi usullarining paydo bo'lishini oldindan belgilab berdi.

– Virtual makonda mehnat munosabatlarini o'rnatish vositasi bo'lgan Internet va global Internet paydo bo'lishi bilan, masalan, transmilliy korporatsiyalar xodimlari va ish beruvchilari uchun bo'sh ish o'rinlari bankini yaratish va boshqalar.

– XX asrning oxirida mobil telefonlarning paydo bo'lishi bilan, bu masofada ishlash imkoniyatlarini kengaytirdi va uning yangi turlarining paydo bo'lishiga yordam berdi. Masalan, mobil telefonlar shaxsiy kompyuterning ajralmas qismiga aylanib, Internet orqali uyali aloqa qilish imkonini beradi, keyin esa mobil telefon mobil ofisga aylanadi.

– Texnologik aloqa vositalarining imkoniyatlarini kuchaytirgan va sifat darajasini oshirgan raqamli axborotni qayta ishlashning paydo bo'lishi bilan masofaviy bandlik sharoitida mehnat funksiyalarini bajarish sifat jihatidan yaxshilandi. Masalan, barcha aloqa tizimlarini raqamli standartga intensiv ravishda o'tkazish tufayli har qanday ma'lumot formatini (ovoz, matn, faks) boshqasiga aylantirish uchun real imkoniyatlar mavjud.

– Birinchi omil – axborot oqimlarini uzatuvchi kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, masofaviy bandlikning umumiy elementi bu turli xil telekommunikatsiya vositalaridan, jumladan, telefon, kompyuter va boshqalardan foydalanishdir. Masofaviy bandlik sharoitida ushbu vositalar masofadagi ish natijalarini telefon, kompyuter va boshqa tarmoqlarning "simlari orqali" uzatilishi mumkin bo'lgan shakllarga aylantirishga xizmat qiladi.

Texnologik imkoniyatlarning izchil rivojlanishi masofaviy bandlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun sharoit yaratishga olib keldi. Shunday qilib, o'tgan asrning o'rtalarida axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasida katta axborot oqimlarini uzatishni osonlashtiradigan turli xil aloqa liniyalarini yaratish, rivojlantirish va ulardan foydalanish vazifalari hal qilindi. Bu ommaviy axborotni uzatish vositalarining jadal rivojlanishi bilan boshlandi, ya'ni telefonlar va telefon liniyalari,



radio qabul qiluvchilar sonining o'sishi hamda radioaloqa liniyalari, televizorlarning ko'payishi va sun'iy yo'ldosh aloqalarining paydo bo'lishi va boshqalar. Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan asrning oxiriga kelib Yerda 2,2 milliard radio qabul qiluvchi va 1 milliard 200 million televizor mavjud edi<sup>4</sup>. Keyinchalik texnologik infratuzilmani shakllantirish jarayoni eng keng tus oldi va shaxsiy kompyuterlar, modemlar va Internet, fakslar, peyjerlar, mobil telefonlar va ularga mos keladigan vositalarning butun arsenalining paydo bo'lishida namoyon bo'ldi. Uzoq masofalarga ma'lumot olish va uzatishni yaxshilash uchun zarur bo'lgan aloqa liniyalari va boshqalar bandlikka katta ta'sir ko'rsatdi, mehnat va mehnat munosabatlarining xarakterini o'zgartirdi. Keyingi rivojlanish, jumladan, axborotlashtirish va telekommunikatsiyaning uyg'unlashuvi bir tizimda yoki bitta obyektida ular qaysi hududga tegishli ekanligini aniqlashning juda qiyin bo'lishiga olib keldi. Bu hodisa "axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar konvergentsiyasi" deb ataladi. Amaliy muomalaga esa "infokommunikatsiyalar" atamasi kiritildi, bu zamonaviy axborot, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarining o'z tizimlari va vositalarini amalga oshiradigan uzviy birlashtirgan kompleks, tashkilotlar va aholini axborot hamda telekommunikatsiya mahsulotlari va xizmatlari bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan.

– Ikkinchi omil. Global tarmoq makonini yaratish – Internet. O'tgan asrning 90-yillari o'rtalariga kelib dunyo Internet bumiga<sup>5</sup> tayyorlanayotgan edi. Global Internetning rivojlanishi bilan iqtisodiy infratuzilmaning har xil turlari Internet texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishni boshlaganda samaraliroq bo'ladi. Masalan, bandlik sohasida axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish mehnat bozorida mavjud bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumot olish imkoniyatini oshirdi. Mutaxassislarning aniqlashicha, Qo'shma Shtatlarda Internetdan foydalanish yo'nalishi bo'yicha mehnat bozori subyektlari ko'pincha ish topish yoki masofaviy ta'lim olish uchun uning xizmatlariga murojaat qilishadi. Shuningdek, ishsizlar internetdan ish topish uchun hammadan ikki barobar ko'p

foydalanishi qayd etildi. Qishloq aholisi barcha demografik toifalarda shahar aholisiga qaraganda kamroq faol bo'ladi. 1963-yilda Internetni yaratishda yetakchi rollardan birini o'ynagan Jon Liklider kelajakda dunyoning istalgan nuqtasidan dasturlar va ma'lumotlar bazalariga tezkor kirish hamda butun jamiyatni axborotlashtirishga hissa qo'shadigan global kompyuter aloqasi mavjudligini bashorat qiladi. Uning qarashlari xalqaro Internetning hozirgi tuzilishini aks ettiradi. Shu bilan birga, J.Liklider birinchilardan bo'lib tuzilmalarga emas, odamlarga sarmoya kiritishni, universitetlar mutaxassislariga ustunlik berishni, internetdan foydalangan holda intellektual salohiyatni jamlash markazlarini shakllantirishni taklif qildi. Shuni ta'kidlash kerakki, hech bir ommaviy axborot vositalari bunchalik tez rivojlanib, global tarmoq axborot makonini shakllantirmagan. Axborot tarmog'i maydoni, o'z navbatida, bilimlarning yangi yo'nalishlarini ochish, mehnatni intellektuallashtirish, insonning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati sohasida, xususan, mehnat sohasida tashkiliy va institutsional takomillashtirishning yangi imkoniyatlarini ochish mumkinligini ko'rsatadi.

– Uchinchi omil. Internet iqtisodiyoti va elektron mehnat bozorini yaratish. Masofaviy bandlikni rivojlantirishning texnologik shartining uchinchi omili ham, bizning fikrimizcha, ahamiyatli bo'lib, hozirgi bosqichda internet iqtisodiyotining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bu an'anaviy iqtisodiyot uchun prinsipial jihatdan yangi holat bo'lib, unda iqtisodiy va boshqa faoliyat subyektlari mavjudligi uchun eng keng maydonga ega bo'lgan bozor ishtirokchilarining tipik o'zaro ta'siri bo'lgan yagona virtual muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega. Internet-iqtisodiyotning rivojlanishi va tarqalishi allaqachon global miqyosda bo'lib, butun dunyo hamjamiyatini qamrab oldi. Masalan, bu Yevropada Telework Initiative (ETD)<sup>6</sup> veb-sayti hozirda faoliyat ko'rsatayotganida o'z aksini topdi, u yerda siz ushbu sohadagi ishlarning holati to'g'risida ko'plab materiallarni, keng qamrovli hisobotlarni topishingiz mumkin. ETDning maqsadlari quyidagilardan iborat: qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topishda masofadan ishlash, teletijorat va telekooperatsiyaga qiziqqan barchaga yordam berish; masofadan

<sup>4</sup> Kashlev Yu.B. – 2002.

<sup>5</sup> <https://www.urbandictionary.com/define.php?term=Internet%20Bum>

<sup>6</sup> European Telework Development Initiative (ETD) - <http://www.eto.org.uk>



ishlash, telesavdo va telekooperatsiya usullaridan foydalanishga yordam berish va boshqalar.

Masofaviy bandlikni ommalashtirish va rivojlantirish hamda uning samaradorligini oshirish maqsadida Internet tarmog'ida ixtisoslashtirilgan portallar ham yaratilgan bo'lib, ular doirasida masofaviy bandlikni ta'minlash bo'yicha milliy internet-resurslar mavjud. Yevropa portallari orasida, birinchi navbatda, quyidagilarni ta'kidlash mumkin: European Telework Online (EE)<sup>7</sup>. Uning veb-saytida masofadan ishlashni qonunchilik bilan qo'llab-quvvatlash sohasidagi hozirgi vaziyatga oid materiallar, Yevropada va alohida mamlakatlarda masofaviy ish holati to'g'risidagi hisobotlar, masofadan ishlash rejimida tadqiqot ishlarida ishtirok etish bo'yicha real takliflar mavjud. U yerda Yevropaning televideniye brokerlik veb-saytlari haqida umumiy ma'lumot, joriy voqealar taqvimini va o'tgan konferensiyalar materiallari mavjud.

AQShda ham shunga o'xshash bir nechta portallar mavjud: AQSh Umumiy Xizmatlar ma'muriyati veb-saytining bo'limi; Amerika Qo'shma Shtatlarining Inson resurslari bo'yicha Federal agentligi (OPM – Xodimlarni boshqarish idorasi) va Kaliforniya shtatidagi hukumat tashkilotining sayt bo'limi.

Shunday qilib, AQSH Umumiy xizmatlar ma'muriyatidagi Telework va ish joyidagi tashabbuslar guruhining rasmiy vazifasi AQSh davlat tashkilotlarida masofaviy ishlashni joriy etish bo'yicha idoralararo dastur haqida ma'lumot berishdan iborat. Kaliforniya shtatidagi Shtat Tashkiloti shtatning masofaviy ish dasturini boshqaradi, u masofadan ishlashga qiziqqan kompaniyalar va shaxslarga ta'lim dasturlari, pilot loyihalarni boshqarish yordami va eksperimental dasturlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, nodavlat portallar ham mavjud. Masalan, Amerika Telework Assotsiatsiyasi va Kengashining portali uzoqdan ishlashning afzalliklarini targ'ib qilishga va masofadan ishlaydiganlar hamda uzoqdan ishlaydigan tashkilotlarga yordam va treninglar berishga bag'ishlangan. Ushbu resurs ikki zonaga bo'lingan: erkin kirish zonasi va "faqat a'zolar" zonasi. Faktlar, raqamlar, masofaviy ishning ijobiy va salbiy tomonlari, konferensiya jadvallari, nashrlar, masofaviy ishlarni tashkil qilish bo'yicha qo'llanma, tez-tez beriladigan savollarga javoblar.

<sup>7</sup> Электронный адрес: <http://www.eto.org.uk/>

Assotsiatsiyaga a'zolik to'lanadi. A'zolarining o'zlari har xil yillik to'lovlar va shunga mos ravishda ixtisoslashtirilgan ma'lumotlarga kirish huquqi, shuningdek, o'zlarini va xizmatlarini taqdim etish uchun turli imkoniyatlarga ega bo'lgan bir necha toifalarga bo'lingan. Bunday portallar boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham mavjud.

Tashkilotlarning domen nomlarini Internet tarmog'ida yuqorida qayd etilgan elektron shaklda rasmiylashtirish iqtisodiyotda yangi makon – Internet iqtisodiyoti uchun ma'lum parametrlarni belgilashga yordam berdi, bu esa biznesni tashkil etish va amalga oshirish, masofaviy virtual korxonalar, korporatsiyalarning yangi turlari, butun tarmoq hamjamiyatlari va boshqalarni yaratish imkonini berdi. Tarmoq tashkiloti – bu muayyan funksiyalarni bajarishdan ko'ra ko'proq dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan mustaqil ishchi guruhlar tarmog'ini tashkil etishga asoslangan model. Tashkilotning tarmoq modeli quyidagilarni nazarda tutadi: iyerarxiyani bekor qilish va gorizontal tuzilmani yaratish, ish funksiyalarini bajarishni fazoviy va vaqtincha markazlashtirmaslik, moslashuvchan virtual mehnat munosabatlari hamda masofaviy bandlik.

Masofaviy bandlikni rivojlantirish va shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan texnologik shartlarni o'rganishni yakunlab, quyidagilarni aytishimiz mumkin: texnik tomondan, masofaviy mehnat munosabatlari ochiq elektron tarmoqlarning, shu jumladan, Internetning texnik vositalari va xizmatlarining yetarli darajada rivojlanishi bilan amalga oshiriladi. Bu narxning pasayishi va foydalanuvchilar tomonidan kompyuterlar va telekommunikatsiyalar ishlashining keng yoyilishi tufayli bo'lishi mumkin. Shuningdek, ish beruvchilar va ish izlovchilarning o'z biznesi yoki loyihalarida muvaffaqiyat qozonishi uchun ushbu yangi imkoniyatlarni o'rganishga tayyorligi ortib borayotgani tufayli. Butunjahon Internet tarmog'i axborot virtual makonini, Internet-iqtisodiyotni, yangi turdagi korxonalar va butun korporatsiyalarning masofaviy mehnat munosabatlarini o'z ichiga olgan holda elektron mehnat bozori subyektlarining interaktiv harakatlarini amalga oshirish uchun rivojlanishiga hissa qo'shadi.

**Xulosa.** Ta'kidlash kerakki, masofaviy bandlik O'zbekistonda yangi tizim hisoblanadi. Buning

bir qancha ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, afsuski, O‘zbekistonda ko‘plab yoshlar, ayniqsa, xotin-qizlarning masofaviy bandlikning salbiy tomonlarini o‘zlashtirganligini aytishimiz mumkin. Masalan, ayollarning masofaviy bandlikning YouTube, Instagram, Tik-Tok kabi ijtimoiy tarmoqlardagi “tele-ish” tarzida olib borayotgan faoliyatlari xotin-qizlarning psixologiyasi, ularning ijtimoiy qarashlari va xulq-atvorlariga salbiy ta‘sir qilmoqda. Bugungi kunda internet olamidan ezgu yo‘lda foydalanish, olinayotgan har bir ma‘lumotga sinchkovlik bilan ehtiyotkorona yondashish zarur. Shu boisdan yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagilarga e‘tiborni kuchaytirish lozim:

– masofaviy bandlikning ilmiy ahamiyatini keng yoyish, uning ijtimoiy-iqtisodiy muhim ko‘rinishlarini aholi va xotin-qizlar o‘rtasida targ‘ib qilish lozim;

– xotin-qizlarni internet olamining salbiy ta‘siriga tushib qolmasligi uchun, vaqtini mazmunli o‘tkazish, axborot texnologiyalari, sun‘iy ong, robototexnika, web-dizayn va shu kabi boshqa

ko‘plab masofaviy ishlashning ijobiy ta‘siriga yo‘naltirish kerak;

– hududlarda maktab va oliy ta‘lim muassasalari qoshida axborot texnologiyalari markazlarini ochish, xotin-qizlarni markazlarga jalb etish zarur;

– bugungi kunda masofaviy bandlikning ko‘rinishlari sifatida faoliyat yurituvchi blogger, vine, tik-tokerlarning faoliyati davlatning tegishli tashkilotlari tomonidan nazoratga olinishi va salbiy ta‘sirga ega bo‘lgan profillar bloklanishi hamda o‘chirilishi zarur;

– masofaviy ta‘limni keng yoyish va shu orqali masofaviy bandlikni ham keng targ‘ib qilish lozim;

– chekka-chekka hududlarda ham aholini sifatli internet bilan ta‘minlash hamda elektron kutubxonalar faoliyatini kengaytirish, onlayn savdo tizimini keng yoyish lozim;

– O‘zbekiston mehnat qonunchiligida bandlikning ushbu yangi samarali shaklini rivojlantirishga yordam beradigan normalarni yaratish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Wellman B., et al. Computer networks as social networks: Collaborative work, telework, and virtual community // Annual Review of Sociology. Vol.20. Palo Alto: Annual Review Co., 1996. pp. 213-238.
2. Кашлев Ю.Б. Становление глобального информационного общества и место России. // Сборник материалов «Информация. Дипломатия. Психология.» Круглого стола и лекций преподавателей кафедры массовой коммуникации и связей с общественностью Дипломатической академии Министерства иностранных дел России. Отв.ред. и составитель д.э.н. Кашлев Ю.Б., Раздел II. Часть 1. М.: Известия, 2002, [http://evartist.narod.ru/text/10/79.htm#3\\_01](http://evartist.narod.ru/text/10/79.htm#3_01)
3. Тарасенко Н. Виртуальная компании – это просто // [www.telework.ru](http://www.telework.ru)
4. Telework 1997: Annual Report from the European Commission // At the European Telework Online website <http://www.eto.org.uk/twork/tw97/tw97-a4.htm>
5. Vittorio Di Martino «The high road to teleworking» // Promoting decent work, ILO, Safe Work, Geneva, 2001.
6. Jack M. Nilles. JALA International, Some Common - and Not So Common - Telework /Telecommuting Questions, <http://www.jala.com/faq.htm>



**Qo'ziyeva Gulmira,**

*Farg'ona viloyati IIB TQX Jinoyat qidiruv boshqarmasi  
Odam savdosiga qarshi kurashish bo'limi katta tezkor vakili, mayor,  
mustaqil tadqiqotchi*

## ODAM SAVDOSI JINOYATINING OLDINI OLIISH VA UNGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATIDA XOTIN-QIZLARNING HUQUQIY ONGI HAMDA HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISH

**Annotasiya.** Maqolada bugungi kunda yurtimizda ayollar uchun yaratib berilayotgan sharoitlar, shunga qaramay taqdir taqozosi bilan odam savdosining qurboniga aylanayotgan ayollar, taqdirlar, bu tuzoqqa tushib qolmaslik uchun nima qilish lozimligi, chora-tadbirlar xususida so'z borgan. Shuningdek, dunyoda odam savdosi qurboni bo'layotgan, odamlar ekspluatatsiyasidan topiladigan daromad statistikasi keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** odam savdosi, odamlar ekspluatatsiyasi, uyushgan jinoyatchilik, jabrlanuvchi, majburiy mehnat, migrasiya, nikoh agentliklari, iste'molchi davlatlar.

**Аннотация.** В статье рассказывается об условиях, созданных для женщин в нашей стране сегодня, о женщинах, которые волею судьбы становятся жертвами торговли людьми, их судьбах, что нужно делать, чтобы не попасть в эту ловушку, меры, которые необходимо предпринять. Также представлена статистика доходов от эксплуатации людей, ставших жертвами торговли людьми в мире.

**Ключевые слова:** торговля людьми, эксплуатация человека, организованная преступность, жертва, принудительный труд, миграция, брачные агентства, страны-потребители.

**Annotation.** The article tells about the conditions created for women in our country today, about women who, by the will of fate, become victims of human trafficking, their destinies, what needs to be done in order not to fall into this trap, the measures that need to be taken. Also presented are statistics on income from the exploitation of people who have become victims of human trafficking in the world.

**Keywords:** human trafficking, human exploitation, organized crime, victim, forced labor, migration, marriage agencies, consumer countries.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda davlatlararo migratsiya jarayonlari birmuncha faollashdi, fuqarolarning mehnat qilish, ta'lim olish, turizm va shu kabi turli maqsadlarda boshqa davlatlarga chiqishi, erkin faoliyat olib borishi uchun imkoniyatlar yanada kengaymoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan bu borada turli farmon va qarorlar, mutasaddi vazirlik va tashkilotlarning

qaror va farmoyishlari qabul qilinmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlarga yaratilayotgan sharoit va imoniyatlar ularning oilada, jamiyatda o'z o'rnini topishiga yo'l ochishi bilan ahamiyatli. "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ning yo'lga qo'yilishi, joriy yilning mart oyida Prezidentimizning birdaniga ikkita – "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon hamda "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorni imzolashi ham ularga bo'lgan davlat e'tibori va g'amxo'rliqi belgisidir.

Biroq tarixan bizga ma'lumki, har qanday jamiyatda ijobiy omillar bilan birgalikda jamiyat taraqqiyotiga, unda yashovchi fuqarolarning huquq va manfaatlariga tajovuz qiladigan, jamiyatda o'rnatilgan qonunchilik va huquq-tartibotni buzishga urinuvchi, o'z manfaatlarini davlat va jamiyat hamda boshqa shaxslarning manfaatidan ustun qo'yishga harakat qiluvchi salbiy, tor doiradagi shaxslar toifasi ham uchrab turadi. Bugungi kunda ana shunday shaxslar toifasiga odamfurushlarni, ya'ni odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslarni kiritish mumkin.

Insonlar boylik orttirish maqsadida o'z qavmini, qarindosh-urug'larini, mahalla-ko'yda yashab turgan mahalladoshlarini turlicha aldovlar bilan Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, Birlashgan Arab Amirliklari, Janubiy Koreyada yaxshi haq to'lanadigan ishlarga joylab qo'yishni va'da qilib noqonuniy yo'llar bilan olib chiqib ketib, sotib yubormoqdalar. Bunday holat millatimizning fojiasidir. Ayniqsa, bu ishlarga ayollarning aralashib qolishi kechirib bo'lmas holatdir.

Bugun odam savdosi jahon mamlakatlarining global muammolaridan biriga aylandi. Ayrim davlatlar boshlang'ich, ba'zilar tranzit yoki so'nggi manzil sifatida harakat qilishadi. BMT statistik ma'lumotlariga ko'ra, odamlar kamida **127** mamlakatdan sotuvga chiqmoqda. Ular **137** davlatda ekspluatatsiya qilinmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, har yili **20-40 million kishi** quldorlikning zamonaviy shakli qurboniga aylanyapti<sup>1</sup>.

Afsus bilan ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ayrim shaxslar jinoyat sodir etish yo'lga kirib, fuqarolarimizni, jumladan, yosh ayol va qizlarimizni turli aldov va firibgarlik yo'li bilan tuzog'iga ilintirib, ulardan o'zlarining g'ayriqonuniy manfaatlarini yo'lida foydalanib, odam savdosi bilan shug'ullanmoqdalar. Buning oqibatida ko'pgina ayol-qizlar odam savdosining qurboniga aylanmoqda. Uning salbiy oqibatlarini ko'z oldimizga keltiradigan bo'lsak, shu kunga qadar dunyo bo'yicha millionlab ayollar va bolalar qul sifatida shahvoniy va boshqa maqsadlarda ekspluatatsiya qilish uchun sotib yuborilgan.

<sup>1</sup> <https://www.unodc.org/toc/ru/crimes/human-trafficking.html>

Odam savdosining boshqa jinoyatlardan asosiy farq qiluvchi xususiyati shundaki, ushbu jinoyatni sodir etilishi oqibatida insonlar (jabrlanuvchilar) jonsiz buyumlarga tenglashtiriladilar.

**Odam savdosi** – kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni anglatadi<sup>2</sup>.

Uyushgan jinoyatchi guruhlar va g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi shaxslar o'z manfaatlarini ko'zlab, mo'may daromad olish yo'lida har qanday qabihlikka qo'l urmoqdalar. Ushbu jinoyat xavflilik darajasiga ko'ra narkotik va qurol-yarog'larning noqonuniy savdosidan keyingi o'rinni egallashi achinarli holdir.

Bunga yaqqol misol sifatida shuni keltirish mumkinki, joriy yilning 30-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi IIV TEQKBB hamda Farg'ona viloyati TEQKB Odam savdosi va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda Turkiya davlatining Istanbul shahriga shahvoniy maqsadlarda (*fohishalikda*) foydalanish uchun 2 nafar qizlarni yuborayotgan jinoiy guruh a'zosining jinoiy faoliyati fosh etilib, qizlarning chiqib ketishining oldi olindi.

Jumladan, asli Andijon tumanidan bo'lgan 1983-y.t. "A" ismli fuqaro o'zining Shahrixon tumanidan bo'lgan 1983-y.t. "M" ismli tanishi bilan birga Qo'qon shahridan bo'lgan 1985-y.t. "F" hamda Farg'ona shahridan bo'lgan 1983-y.t. "N" ismli qizlarni hozirgi kunda Istanbul shahrida qo'shmachilik bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi "Oydin" ismli ayolga yuborish uchun oldindan til biriktirib, uning ko'magida, fohishalik bilan shug'ullanishi uchun aviachiptalar sotib olinib, kelishuvga asosan jabrlanuvchilarga avvaliga 1500 AQSh dollari ishlab berish sharti bilan Istanbul shahriga fohishalikda ekspluatatsiya qilish orqali jinoiy daromad orttirish maqsadida, Toshkent

<sup>2</sup> <http://ht.gov.uz/uz/>



xalqaro aeroportida olib ketilayotgan vaqtda daliliy ashyolar bilan qo'lga olindi hamda tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi.

Tahlillarga ko'ra, bugungi kunda odam savdosi singari transmilliy jinoyatlarning inson xavfsizligiga tahdidi natijasida jabr chekayotganlar ko'pchilikni tashkil etib, hudud va chegara bilmaydigan bu jinoyat jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Afsuski, respublikamizda odam savdosi bilan bog'liq jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish yuzasidan davlatimiz tomonidan islohotlar olib borilishiga qaramasdan, bunday holatlar respublikamizda ham mavjud bo'lib, fuqarolarimiz, jumladan, yosh ayol va qizlarimiz turli aldov, firibgarliklar ta'siri ostida odam savdosi qurboniga aylanmoqdalar.

Har kuni istalgan vaqtda majburiy mehnatga, shu jumladan, shahvoniy xizmatlar ekspluatatsiyasiga jalb qilingan ayollarning soni, taxminan, 2,5 mln. ni tashkil qiladi (*Migratsiya bo'yicha Xalqaro Tashkilot ma'lumoti*).

Dunyo miqyosida odamlar ekspluatatsiyasidan topiladigan yillik daromad, taxminan, 31,7 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi. (*Migratsiya bo'yicha Xalqaro Tashkilot ma'lumoti*)

Bundan shu kelib chiqadiki, odam savdosi girdobiga tushib qolishining asosiy sabablaridan biri, u yerdagi mahalliy tilni va qonunchiligini bilmaslik, eng muhimi, noqonuniy ravishda borganligi va pasportlarini ish beruvchilarga berib yuborib, huquqiy himoyasiz bo'lib qolganliklari uchun ularga qul sifatida munosabatda bo'lishmoqda.

So'nggi vaqtlarda ayrim yosh ayol va qizlar hayot tashvishi va qiyinchiliklariga to'g'ri baho bera olmasdan, yengil daromad topish, tez boyib ketish yo'llarini izlashlari oqibatida odamfurushlarning yengil "o'lja" sig'a aylanmoqdalar. Shunday ayollar odam savdogarlari tomonidan ofitsiant, raqqosa, fotomodel, bolalarga enaga, qariyalarga qarovchi, uy bekasi yoki uy xizmatchisi kabi ishlarda ko'p pul ishlashni va'da qilishib, chet elga ishga yollanmoqdalar. Chet elga ishga yollanish, asosan, "tanish-bilishlari", "internet", "telefon", "nikoh agentliklari" va "ishga joylashtirish bo'yicha reklama e'lonlari" orqali amalga oshirilmoqda.

Ammo ular chet davlatga borganlaridan so'ng aldanganliklarini tushunib yetadilar, ularni zo'ravonlik ila fohishalik bilan shug'ullanishga majburlashadi, hujjatlarini olib qo'yib, huquqni

muhofaza qiluvchi idoralarga murojaat etsalar, ularning sog'lig'i va hayotiga xavf solish bilan qo'rqitishadi.

Tahlillarga ko'ra, odam savdogarlari tomonidan yollangan ayol-qizlarning asosiy qismi "iste'molchi" davlatlar – Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya, Hindiston, Indoneziya, Malayziya, Tailand davlatlariga yuborilgan. Fuqarolarimiz chet davlatlarga tranzit davlatlar – Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya, Ukraina, Armaniston va Ozarbayjon Respublikalari orqali olib chiqilmoqda.

Yollangan shaxslarni bevosita chet elga olib borish uchun odam savdogarlari yo'l xarajatini o'z zimmlariga olib, belgilangan davlatlarga olib boradilar. U yerda "yollangan shaxslar"ning hujjatlarini olib qo'yib, ularni chet el davlatiga olib kelish uchun sarflangan mablag'ni ishlab berish shartini qo'yib, ayollarni fohishalik yoki boshqa ishlarda ishlashga majbur qiladilar. Kelishilgan pulni "ishlab berganlaridan so'ng" jabrlanuvchilarni ko'p hollarda mahalliy huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga "topshiradilar" va ular O'zbekistonga deportatsiya qilinadilar.

Achinarli tomoni shundaki, hozirgi vaqtda umrida mahallasidan tashqariga chiqmagan, chet elga borish va ishga joylashishdagi vositachilik bilan bog'liq xavfni tushunib yetmagan yosh ayol-qizlar odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar aldovi, yolg'oniga uchib, katta pul bilan chet elga ketib, sog'lig'i yo'qolishiga, surunkali kasalliklarga chalinish yoki bir umrga nogiron bo'lishiga sabab bo'ladigan tazyiq, zo'ravonlik va qiyinchiliklarga duchor bo'lishmoqda.

**Xotin-qizlarni odam savdosi qurboniga aylanib qolishining oldini olish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.**

Ayol-qizlarga nisbatan sodir etiladigan odam savdosiga qarshi kurashish muammosi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Odam savdosidan ayollarning jabrlanishi oqibatida ertangi yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazuvchi millat onalariga, jumladan, ularning ortida turgan murg'ak farzandlariga ruhiy va ma'naviy jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eng xavfli shundaki, odam savdosi o'zining girdobiga, asosan, yoshlarni va ayollarni tortayotganligi bilan katta tashvish va xavotir uyg'otmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizini ayollar va yosh bolalar tashkil etmoqda. Har



yili dunyo bo'yicha 600 ming nafardan 800 ming nafargacha ayollar va bolalar aldov yo'llari bilan chet ellarga olib ketilib, sotib yuborilmoqda. Eng achinarli tomoni, ayollar bilan tovar sifatidagi savdo ko'lami dunyo bo'yicha yiliga 10 milliard AQSh dollardan oshib ketgan.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, mamlakatimizning o'zida tirikchilik qilish imkoniyati bo'la turib, ba'zi ayol-qizlarimizning xorijga olib ketib sotilishi, xo'rlanishi, fohishalikka yollanishida ayollarning soddaligi va ishonuvchanliklari, qisqa vaqt ichida moddiy muammolarni hal etish ilinji, yengil ish topish orzusi, huquqiy bilimlarga ega bo'lmaslik, jinoyatdan jabrlanganlarning dunyoqarashining torligi, sayozligi kabi xislatlari bilan ko'p hollarda o'zlari sababchi bo'lib qolmoqdalar.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ta'kidlash kerakki, bugungi kunda yosh ayol-qizlarni odam savdosi qurboniga aylanib qolishlarining oldini olishning eng samarali yo'li bu – odam savdosiga qarshi kurashuvchi davlat organlarining o'zaro hamkorlikdagi profilaktik ishlarni, ya'ni ushbu jinoyatlarning qurboni bo'lishga moyil bo'lgan shaxslarga nisbatan qaratilgan ogohlantiruv-tushuntirish targ'ibot ishlarning samaradorligini yanada oshirishdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolardan kelib chiqqan holda, ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

– yosh ayol va qizlarni muqaddam odam savdosi jinoyatini sodir etgani uchun sudlanganlar hamda ushbu jinoyatlarni sodir etishga moyil shaxslarning ta'siriga tushib qolishlarining oldini olish yuzasidan tushuntiruv ogohlantiruv ishlarini olib borish;

– ishsiz, biror-bir foydali mehnat faoliyati bilan band bo'lmagan ayol-qizlarni ularning qiziqishlari bo'yicha bandligini ta'minlash;

– ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ayrim toifadagi fuqarolarni odam savdosi jinoyatining qurboni bo'lganligi hamda ushbu jinoyatning ijtimoiy salbiy oqibatlarini haqidagi ko'rsatuvlarni berib borish;

– odam savdogarlari tomonidan chet elda ishlashni va mo'may pul topishni va'da qilayotgan

shaxslar haqidagi ma'lumotlarni zudlik bilan joylarda tashkil etilgan ishonch telefonlariga yetkazish bo'yicha tegishli ogohlantiruv ishlarini olib borish;

– ayol-qizlarga nisbatan odam savdosi jinoyatining sodir etilishining oldini olish va unga yo'l qo'yimaslik maqsadida ayollar bilan muntazam davra suhbatlari o'tkazish, ularga zaruriy huquqiy maslahatlar berib borish.

Yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirishdan maqsad ish izlab yoki bilim olish uchun chet davlatlarga borish xohish-istagi, niyatida bo'lgan yosh ayol-qizlar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa o'rnatib, ularga ishga yoki o'qishga joylashish tartibi, shart-sharoitlari, shu jumladan, chet elga noqonuniy yo'llar bilan chiqishning salbiy oqibatlarini haqida to'la-to'kis ma'lumotlar berib, ularni odam savdosi girdobiga tushib qolishlarining oldini olishdir.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ayol-qizlarga nisbatan sodir etiladigan odam savdosiga qarshi kurashish bugungi kunda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning balki, mamlakatimizda yashayotgan o'zining farzandi, opasi, singlisi va yaqinlarini hayoti hamda kelajagiga befarq bo'lmagan barcha fuqarolarimizning oldida turgan eng mas'uliyatli vazifadir.

Biz ushbu maqolamiz orqali respublikamizning barcha fuqarolari hamda xorijiy davlatlarda mehnat migranti sifatida mehnat qilayotgan ayol-qizlarimizni aldanib, odam savdosi bilan shug'ullanuvchi kimsalar tuzog'iga tushib qolmasligiga, oson va mehnatsiz boyish kabi yolg'on va'dalarga ishonib qolmaslikka, atrofda ro'y berayotgan global muammolarga qarshi kurashish jarayonlarini faol kuzatishga va eng muhimi, ogoh bo'lishga chaqirib qolamiz.

Xorijga ishlash uchun ketayotgan har bir respublikamiz fuqarosi bo'lgan ayol-qizlarimizda o'z iqtisodiy-moliyaviy darajasini yaxshilash, dunyoni ko'rishdan tashqari xalqaro hamjamiyatda O'zbekistonning sha'ni-shavkatini, obro'-e'tiborini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Ular o'z aql-zakovati, odob-axloqi bilan turli xalqlarda o'zbek millati, mustaqil Vatanimiz haqida muayyan taassurotlar shakllantirishini hech qachon yoddan chiqarmasliklari kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.unodc.org/toc/ru/crimes/human-trafficking.html>
2. <http://ht.gov.uz/uz/>

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»  
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

## MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии*  
*Society, Gender and Family in Central Asia*

xalqaro ilmiy jurnali

*международный научный журнал*

*international academic journal*

**2022/2 (3)**

**DOI: 26739/2118-9998**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**MUASSIS:**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,  
Jo‘rayeva M., Razzakova N.,  
Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 17.11.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

«SANBOOK EXCLUSIVE PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangıhayot tumani, 5-qurılısh hududi, 9-uy.